Sanitar-gigiyena uchun nafas berishda steril salftka yoki bintdan foydalaniladi, ammo qalinmato qo'llanilmaydi.

Kattalarda nafas chastotasi: daqiqasiga 14–16 marta.

To'g'ri bajarilayotganini ko'krak qafasi ning harakati bilan



aniqlanadi: nafas olayotganda ko'tarilishi, chiqarayotganda tushishi.

3 Og'izdan burunga" usulida sun'iy nafas berish: Pastki jag' shikastlanganda yoki og'iz ochilmasa qo'llaniladi. Bosh orqaga egiladi, bir qo'l peshonada, ikkinchisi bilan pastki jag' yuqo riga ko'tariladi va og'iz yopiladi. Burun ni lablari bilan qamrab, nafas yuboriladi.

4. AMBU moslamasi bilan sun'iy nafas: Niqob bemorning yuziga qo'yiladi, og'iz va burunni to'liq yopadi.

Niqobning yuqori (burun qismi) qismi bosh barmoq bilan,

pastki qismi esa III, IV va V barmoqlar yordamida jag'ni yuqoriga ko'tarib mahkamlanadi.

II barmoq niqobning pastki qismini mahkam ushlab turadi. Bosh orqaga egilgan holatda bo'lishi lozim. Bo'sh qo'l bilan Ambu xaltachasi ritmik tarzda siqiladi — nafas yuboriladi.

Nafas chiqishi maxsus klapan orqali

atmosferaga chiqadi
5. Sun'iy nafas yurak
massaji bilan birga
qo'llanganda:
Tavsiya etilgan
nisbat: 2 ta sun'iy
nafas : 15 ta yurak
siqilishi (2:15).
Sun'iy nafas berish
vaqtida yurak massaji
to'xtatiladi, ammo bu
tanaffus 3 soniyadan
oshmasligi lozim

11 Pulsoksimetr



pulsoksimetr,
ruchka, stul
yoki kushetka
(mijoz uchun).



Tibbiyot xodim
quyidagi qadamlarni
bajarishi lozim:
Qo'llarni sovun bilan
yuing;
Pulsoksimetriyani
o'tkazishdan oldin
tekshirilayotgan
barmoqning terisi toza
ekanligiga va tirnoq
ustida lak yo'qligiga
ishonch hosil qiling;
Pulsoksimetrini
yoqing;
Pulsoksimetrini
mijozning barmog'iga
qo'ying;
Bir necha soniya
kuting;
Pulsoksimetr aniq
signalini olganida,
ekranda yurak urushi
va saturatsiya aks
etadi;

12 Oshqozonni yuvish ketma ketligi.



Steril, yo'gon me'da zondi, voronka, 1 chelak yuvish uchun eritma (4,2% li natriy gidrokarbonat eritmasi, suv), 1 litrli ko'zacha, klyonkali fartuk, klyonka, suv solish uchun tog'ora, sochiq, "Janye" shpritsi, qo'lqop.

1. Bemorga muolaja maqsadi tushuntiriladi;
2. Qo'l yuviladi va quritiladi;
3. Fartuk va qo'lqop kiyiladi;
4. Bemordan ko'ylak tugmachalarini yechish so'raladi;
5. Bemor to'g'ri o'tqaziladi: stulga suyangan holda boshi oldinga engashgan, oyoqlari bir oz ochilgan holda o'tqaziladi;
6. Bemorning bo'yin va ko'kragiga klyonka fartuk tutiladi;
7. Pinset yordamida steril, nam zond olinadi. O'ng qo'l bilan yopiq uchidan 10-15 sm oraliqda ushlanadi, chap qo'l bilan ikkinchi uchi ushlanadi;
8. Me'daga qancha santimetrda zond kiritilishi aniqlanadi;
9. Bemordan og'iz ochish va burun orqali chuqur nafas olish so'raladi. Zondningyopiq uchi til ustiga qo'yiladi;
10. Bemordan yutinishi so'raladi. Har bir yutinganda zond asta-sekin






yuboriladi. Zond belgilangan qismigacha kiritiladi;
11. Zondning ikkinchi uchiga voronka kiygiziladi;
12. O'rnatilgan voronka bemorning tizzasigacha tushuriladi va yuvush uchun tayyorlangan eritma bilan to'ldiriladi;
13. Eritma solingan voronka asta-sekinlik bilan ko'tariladi.
14. Voronka yana asta-sekin tizzagacha tushiriladi va ichidagi suyuqlik tog'oraga tushuriladi;
15. Muolaja me'dadan toza suv tushguncha 15 -16 marta qaytariladi;
16. Salfetka bilan zond uchi o'raladi;
17. Asta-sekinlik bilan zond me'dadan chiqariladi va salfetka bilan artiladi;
18. Bemor oldidan klyonka olinadi va ishlatilgan asboblarni zararsizlantiriladi;
19. Qo'lqop va fartuk yechiladi va zararsizlantiriladi;
20. Me'da yuvilgandan so'ng bemor ahvoli kuzatiladi.

13. Sifonli huqna o'tkazish ketma ketligi.



Suyuq sovun, bir martalik qog'oz salfetka, vazelin, martalik qo'lqop, kleyonka fartuk. Steril yo'g'on naycha, lotok, kleyonka, katta taglik, shpatel. Hajmi 1 litrli voronka, 10-12 litr qaynatilgan, harorati 37C li solingan idish, 1litr hajmdagi krujka. Voronka, yuvindi suvlar uchun idish. 0,5% gipoxlorid natriy eritmasi

1 .Bemorga muolaja maqsadi tushuntiriladi; .Qo'l yuviladi va quritiladi; .Fartuk va qo'lqop kiyiladi; . Bemordan ko'ylak tugmachalarini yechish so'raladi; . Bemor to'g'ri o'tqaziladi: stulga suyangan holda boshi oldinga engashgan, oyoqlari bir oz ochilgan holda o'tqaziladi; 6.Bemorning bo'yin va ko'kragiga klyonka fartuk tutiladi; 7.Pinset yordamida steril, nam zond olinadi. O'ng qo'l bilan yopiq uchidan 10-15 sm oraliqda ushlanadi, chap qo'l bilan ikkinchi uchi ushlanadi; .Me'daga qancha santimetrda zond kiritilishi aniqlanadi; . Bemordan og'iz ochish va burun orqali chuqur nafas olish so'raladi. Zondning yopiq uchi til ustiga qo'yiladi; 10.Bemordan yutinishi so'raladi. Har bir yutinganda zond asta-sekin yuboriladi. Zond belgilangan qismigacha kiritiladi;



11. Zondning ikkinchi uchiga voronka kiygiziladi;
- . O'rnatilgan voronka bemor tizzasigatushuriladi va yuvush uchun tayyorlangan eritma bilan to'ldiriladi;
- . Eritma solingan voronka asta-sekinlik bilan ko'tariladi.
- . Voronka asta-sekin tizzagacha tushiriladi va ichidagi suyuqlik tog'oraga tushiriladi;
- . Muolaja me'dadan toza suv tushguncha 15 -16 marta qaytariladi;
16. Salfetka bilan zond uchi o'raladi;
- . Asta-sekinlik bilan zond me'dadan chiqariladi va salfetka bilan artiladi;
- . Bemor oldidan klyonka olinadi va asboblar zararsizlantiriladi;
- . Qo'lqop va fartuk yechiladi va zararsizlantiriladi;
20. Me'da yuvilgandan so'ng bemor ahvoli kuzatiladi.

4. DASTURNI AMALGA OSHIRISHNING TASHKILY-PEDAGOGIK TA'MINOTI

4.1. O'quv bazalari: Respublika o'rta tibbiyot va farmatsevtika xodimlari malakasini oshirish va ularni ixtisoslashtirish markazi Andijon filiali. Andijon shahar Bobosadin ko'chasi 18-uy, davolash profilaktika muassasalari qoshidagi o'quv bazalari.

Amaliyot bazasi: davolash profilaktika muassasalari qoshidagi o'quv bazalari.

4.2. Mashg'ulotlarni o'tkazish uchun zarur jihozlar ro'yxati:

Modul bo'yicha dars olib borish uchun nazariy, amaliy va seminar darslar o'tiladigan o'quv auditoriyalari.

Multimediali jamlanma: slaydlar to'plami bo'lgan rrt ko'rinishli ma'ruzalar, SD diskda ko'rgazma materiallar, ekran, videofilmlar.

Klinik amaliyko'nikmalarni mustahkamlash trening o'kuvxonasi, mulyaj, fantom v.b jihozlar.

4.3. ADABIYOTLAR RO'YXATI

4.3.1. Qonunchilik va me'yoriy-xuquqiy hujjatlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmon va qarorlari

1.O'zbekistonRespublikasi Prezidentining 2019 yil 6 maydagi "Tibbiyot va farmasevtika ta'limi va ilm-fani tizimini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ- 4310-son qarori.

2. O'zbekistonRespublikasi Prezidentining2020 yil 7 apreldagi "Tibbiy-sanitariya sohasida kadrlarni tayyorlash va yanada uzluksiz kasbiy rivojlantirishning mutlaqo yangi tizimini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ 4666-sonli qarori.

3.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining18.12.2018 yil PQ 4063-sonli " Yuqumli bo'lmagan kasalliklarning profilaktikasini, sog'lom turmush tarzini qo'llab –quvvatlash va aholining jismoniy faolligi darajasini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi Qarori

4.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 11noyabr PF 4887-sonli "Aholining sog'lom ovqatlanishi va jismoniy faolligini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risidagi" farmoni

5.O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligining 2020 yil 15 iyundagi 160-sonli "Tibbiy-sanitariya va farmasevtika kadrlarining uzluksiz malakasini oshirish tizimini tashkil etish buyicha me'yoriy xujjatlarni yanada takomillashtirish to'g'risidagi" buyrug'i.

6.O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligining me'yoriy hujjatlari.

2. O'zbekiston Respublikasi Qonuni, buyruq va me'yoriy hujjatlari:

1. O'zbekiston Respublikasining Qonuni: "Inson a'zolari va to'qimalarining transplantatsiyasi to'g'risida" (O'RQ-768-son, 11.05.2022-yil)

2. Vazirlar Mahkamasining 515-son Qarori (28.04.2022-yil):"Inson a'zolari va to'qimalarining transplantatsiyasini amalga oshirish tartibi to'g'risidagi nizom"

3. Prezidentning PQ-459-son Qarori (28.12.2022-yil) ijrosi bo'yicha SSV ichki dasturi: 2023–2025-yillarga mo'ljallangan investitsiya dasturi doirasida O'zbekistondagi barcha davolash-profilaktika muassasalari, ayniqsa tumanlararo markazlar sun'iy buyrak (gemodializ) apparatlari bilan qayta jihozlandi.

4.3.2 Tavsiya etiladigan adabiyotlar:

1. A.Gadayev, U Mirsharopov “Odam anatomiyasi” Toshkent-2023y
2. A.Gadayev “Ichki kasalliklar” Toshkent-2022y
3. Z.F. Umarova “Nefrologiya” o’quv qo’llanma Toshkent-2021y
4. A.Axmatov “Bolalar nefrologiyasi” o’quv qo’llanma Samarqand -2021y
- 5.M.Dusmatova, M.Asqarova “Buyrak kasalliklari” o’quv uslubiy qo’llanma Andijon-2025y
6. G.K.Kaipbekova “Shoshilinch tez tibbiy yordam ko’rsatish” o’quv qo’llanma 2025-y
7. I.A.To’xtasinov “Shoshilinch tez tibbiy yordam ko’rsatish” uslubiy qo’llanma 2024-y
8. K.E.Melbayeva “Aseptika antiseptika va dizenfeksiya” o’quv uslubiy qo’llanma 2025-y
9. I.A.To’xtasinov “Xirurgiyada hamshiralik ishi” uslubiy yo’riqnoma 2024-yil
10. O.N.Kotenko, Y.M.Shilov “Nefrologiya” Moskva-2021y (elektron darslik)

4.3.3. Elektron ta’lim resurslari

www.edu.uz

www.minzdrav.uz

<http://www.medpoisk.ru/>

<http://www.rusmedserv.com/>

<http://ros-medic.ru>

www.adti.uz

<http://www.medlinks.ru>

5.ORALIQ NAZORAT

Oraliq nazorat – sikl davomida o‘quv dasturining (bir necha mavzularni o‘z ichiga olgan) moduli tugallangandan keyin tinglovchilarining bilim va amaliy ko‘nikma darajasini aniqlash va baxolash usuli. Oraliq nazorat test, suxbat, vaziyatli masala yechish, yozma ish, amaliy ko‘nikmalarni baxolash yoki ularni kombinatsiyalangan shakllarida o‘tkaziladi, aniq ishlab chiqilgan baholash mezonlari bo‘yicha baxolanadi va natijalari gurux jurnalida qayd etiladi.

Andijon filialida malaka oshirish kurslaridagi oraliq nazoratlar bir marotaba og‘zaki so‘rov shaklida o‘tilgan mavzular asosida nazariy amaliy savollarni o‘z ichiga olgan xolda 5 ta savoldan iborat biletlar yordamida amalga oshiriladi. Har bir to‘g‘ri javobga maksimal 20 balldan (%) beriladi, o‘tish balli 60 ball (%). Oraliq nazoratdan o‘tgan tinglovchilar nazoratning keyingi bosqichi Yakuniy attestatsiyaga qo‘yiladi.

1-BILET.

1. Buyrak va siydik yo‘llarini tuzilishini aytib bering?
2. Nefrologiya fani nimani o‘rgatadi?
3. Nefrologik bemorlarni simpomatologiyasi?
4. Buyrak va siydik yo‘llarini kasalligini kelib chiqish sabablari?
5. Buyrak va siydik yo‘llarini kasalliklarini oldini olishda xamshirani vazifalari nimalardan iborat?

2-BILET.

1. Buyrak va siydik yo‘llarini kasalliklarini qo‘zg‘atuvchilari?
2. Nefrologik bemorlardan qon taxlilida kandy o‘zgarishlar bo‘ladi?
3. Nefrologik bemorlardan peshobni taxlili uchun olish qoidalari?
4. Zimnitskiy sinamasini tushuntirib bering?
5. Nicheparenko bo‘yicha peshob taxlili?

3-BILET.

1. Buyrak va siydik yo‘llarini tug‘ma nuqsonlarini aniqlashning zamonaviy usullarini aytib bering?
2. Diabetik nefropatiya nima, belgilari?
3. Xomiladorlik davrida urodinamikasi buzilishining o‘ziga xosliklarini aytib bering?
4. Xomiladorlik gestozining klinik belgilari qanday?
5. Xomiladorlik davrida erta tashxisning zamonaviy usullari?

4-BILET.

1. Xomiladorlik davrida buyrak kasalligini xamshiralik parvarishi?
2. O‘tkir glomerulonefrit kasalligining simptomalogiyasi?
3. Zamonaviy tashxis usullari xamda simptomatik parvarishning ahamiyati?
4. O‘tkir interstitsial nefrit etiologiyasi?
5. O‘tkir interstitsial nefrit kasalligida zamonaviy tekshiruv usullari va xamshiralik parvarishi?

5-BILET.

1. O‘tkir buyrak yetishmovchiligi turlari?
2. O‘tkir buyrak yetishmovchiligida xamshiralik parvarishining o‘ziga xosligi?
3. Surunkali buyrak yetishmovchiligining semiotikasi?
4. Suniy buyrak vazifasini bajaruvchi zamonaviy usullarga qaysilar kiradi?
5. Gemodializ nima?

6-BILET.

1. Plazmoferez nima?
2. Gemofiltratsiya nima?
3. Gemodializda ishtirok etuvchi xamshiraning asosiy vazifalari nimalardan iborat?
4. Yuqumli kasalliklarni yuqishiga qarshi profilaktik chora tadbirlar va xamshiralik parvarishi?
5. Sun'iy buyrak vazifasini bajaruvchi zamonaviy apparatlarning ishlash mohiyati va ularning funksional xolatini xamshira tomonidan nazorat qilinishi?

7-BILET.

1. Gemodializ oluvchi bemorlarda qon tomirga hosil qilingan yo'llarni (fistula, shunt) xamshiralik parvarishining o'ziga xosliklari va muhim jixatlari?
2. Gemodializ vaqtida va undan keyingi asoratlari?
3. Birinchi yordam chora- tadbirlarida xamshiraning vazifalari?
4. Buyrak transplantatsiyasi qachon qilinadi?
5. Buyrak transplantatsiyasiga bemorlarni operatsiyadan oldingi tayyorlash va xamshiralik parvarishi?

8-BILET.

1. Nefrologik bemorlarni ekskreturografiya tayyorlash?
2. Bemorni sistografiya tayyorlash?
3. Antegrad pielografiya usuli nima va bemorni tayyorlash?
4. Nasliy nefropatiya nima va belgilari?
5. Buyrak va siydik yo'llarini tug'ma nuqsonlarini aniqlashning zamonaviy usullarini aytib bering?

9-BILET.

1. Buyrak va siydik yo'llarini kasalligini kelib chiqish sabablari?
2. Buyrak va siydik yo'llarini kasalliklarini oldini olishda xamshirani vazifalari nimalardan iborat?
3. Buyrak va siydik yo'llarini kasalliklarini qo'zg'atuvchilari?
4. Nefrologik bemorlardan qon taxlilida kandy o'zgarishlar bo'ladi?
5. Nefrologik bemorlardan peshobni taxlili uchun olish qoidalari?

10-BILET.

1. Pielonefrit nima?

2. Pielotsistit nima?
3. Urug'olib keluvchi kanal devori necha qismdan iborat?
4. Prostata bezinechata bo'lakdan iborat?
5. Nikturiya nima?

11-BILET.

1. Gematouriya nima ?
2. Piuriya nima ?
3. Proteinuriya nima?
4. Bakteriuriya nima?
5. Leykotsituriya nima ?

12-BILET.

1. Moyak og'irligi qancha?
2. Urug' pufakchasini necha qismdan tuzilgan?
3. O'tkir buyrak sanchig'ida shoshilinch yordam?
4. Tunggi siydik tutolmaslik nima deb ataladi?
5. Buyrakda siydik ajralishini to'xtashi nima deb ataladi?

13-BILET.

1. Yetuk yoshdagi odamning har bir buyragida qancha nefron bor?
2. Po'stloq nefroni necha foizni tashkil qiladi?
3. Yukstamedullyar nefronlar necha foizni tashkil qiladi?
4. Bir kunda miqdorda qancha birlamchi siydik hosil bo'ladi?
5. Po'stloq nefronlari koptokchasida filtratsiya qanday amalga oshadi?

14-BILET.

1. Siydik ayirish yo'llari qanday epiteliyadan tuzulgan?
2. Spermatogenez jarayon necha davrga bo'linadi?
3. Urug' olib ketuvchi yo'l.qanday epiteliya bilan qoplangan?
4. Urug' pufakchalari. nimadan iborat?
5. Ayollarda kuzatiladigan o'tkir uretral sindrom sababi nima bo'lishi mumkin?

15-BILET.

1. Qovuq-siydik reflyuksi qanday oqibatga olib keladi?
2. Yuqorigi buyrak qayerda joylashgan?
3. Polikistoz nima?
4. Jaroxatda anaerob infeksiya rivojlanishining oldini olish uchun nima qilish kerak?
5. Terida chegaralangan nekroz bo'lganda qanday yordam beriladi?

6.YAKUNIY ATTESTATSIYA

6.1. Yakuniy attestatsiyaga qo'yiladigan talablar, o'tkazish shakli va baholash mezonlari.

Yakuniy attestatsiya O'zbekiston Respublikasi Sog'liqnisaqlash Vazirligining 2020 yil 15 iyundagi 160-sonli buyruq 3-ilovasidagi «Tibbiy-sanitariya va farmatsevtika kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish ta'lim muassasalarida tinglovchilarning kasbiy bilim va ko'nikmalarini baholash to'g'risidagi Nizom» asosida o'tkaziladi. Umumiy malaka oshirish kurslarida Yakuniy attestatsiyaga Oraliq nazoratdan o'tgan tinglovchilar kiritiladi.

Nazoratning ushbu turi quyidagi bosqichlarda amalga oshiriladi:

-Test sinovi;

-Amaliy ko'nikmani baxolash bosqichlarida amalga oshiriladi

-Yakuniy suhbat (Imtixon)

Test sinovi – malaka oshirish o'quv dasturiga muvofiq ishlab chiqilgan test banki asosida o'tkaziladi. Test sinovi natijalari quyidagicha baxolanadi: to'plangan to'g'ri javoblar xajmi umumiy test topshirig'ining 60 % va undan ortiqni tashkil etganda “O'tdi”, 59% va undan kam natijaga erishilganda — “O'tmadi” deb baxolanadi. Tinglovchining tayanch bilimlarini aniqlash va yakuniy test sinovini o'tkazish uchun mazkur malaka oshirish kursi dasturi doirasida tuzilgan bir xil test topshiriqlari bankidan foydalaniladi. Tinglovchiga test topshiriqlari bankidan 50 tadan kam bo'lmagan xajmda test topshiriqlari beriladi. Har bir to'g'ri javob 2 balldan baholanadi.

Yakuniy attestatsiyaning amaliy ko'nikmani baxolash bosqichiga test sinovidan o'tgan tinglovchilar qo'yiladi. Amaliy ko'nikmani baxolashda o'rta tibbiyot va farmasevtika kadrlari malakasini oshirish va ularni ixtisoslashtirishga qo'yilgan amaldagi Davlat talablari va malaka talablari doirasida tinglovchi tomonidan amalga oshirilishi lozim ko'nikmalar sinovdan o'tkaziladi. Baxolash natijalari “O'tdi” va “O'tmadi” deb belgilanadi.

Yakuniy suhbat shaklida tinglovchilarga har biri 5 ta savoldan iborat 2 ta vaziyatli masaladan iborat bilet beriladi. Vaziyatli masalalarni yechish natijasi mazkur vaziyatli masalada belgilangan savollarga berilgan to'g'ri javoblar soni asosida shakllantiriladi . Har bir savolga berilgan to'g'ri javoblar maksimal 10 balldan baholanadi.Nazoratning ushbu to'g'ri berilgan umumiy to'g'ri javoblar soni 7 ta (70%) va undan ortiq bo'lganda –“ o'tdi”, 6 ta va undan kam bo'lgan xollarda – “o'tmadi “ sifatida baxolanadi.

Tinglovchining bilim va ko‘nikmalari quyidagi mezonlar bo‘yicha baxolanadi:

O‘zlashtirish	Baho	Tinglovchining bilim darajasi
87-100	5	<p>Tinglovchi o‘quv dasturining barcha bo‘limlari bo‘yicha tizimli, chuqur va to‘liq bilimga ega;</p> <p>Savollarga mantiqiy to‘liq va izchil javob beradi;</p> <p>Javoblarida nazariyani amaliyot bilan chambarchas bog‘laydi;</p> <p>Amaliy masalalarni xal etishda olgan bilimlarini fikrini xatosiz, to‘g‘ri asoslaydi;</p> <p>Amaliy ko‘nikmalarni algoritm bo‘yicha izchil va to‘g‘ri bajaradi;</p> <p>Amaliy topshiriqlarni bajarishda kasbiy bilimni mukammal ko‘rsata oladi;</p> <p>Vaziyatli masalalarni to‘g‘ri yechadi, javoblarni asoslaydi;</p> <p>Noananaviy xolatlarda muammoni mustaqil va ijodiy yechadi.</p>
76-86	4	<p>Tinglovchi dastur doirasida to‘liq bilimlarga ega, javobini xatosiz bayon etadi, savollarga mantiqiy to‘g‘ri javob beradi;</p> <p>Amaliy masalalarni xal yetishda olgan bilimlarini, xatosini o‘z vatida to‘g‘rilaydi;</p> <p>Amaliy ko‘nikmalarni algoritm bo‘yicha izchil va to‘g‘ri bajaradi;</p> <p>Amaliy topshiriqlarni bajarishda yetarli kasbiy bilimga egaligini ko‘rsata oladi;</p> <p>Vaziyatli masalalarni to‘g‘ri yechadi, javoblarni asoslaydi.</p>
60-75	3	<p>Tinglovchi dastur doirasida bilimga ega, savollarga to‘g‘ri javob beradi, lekin ayrim kamchiliklarga yo‘l</p>

qo'yadi;

olgan bilimlarini amaliyotda qo'llay oladi;

Amaliy ko'nikmalarni algoritm bo'yicha izchil va to'g'ri bajaradi;

Vaziyatli masalalarni to'g'ri yechadi, biroq yoasoslashda qiynaladi.

60 dan kam 2

Tinglovchi dastur doirasidagi materialning asosiy qismini bilmaydi, savollar javob berishda qo'pol xatolarga yo'l qo'yadi;

Javobini mantiqiy bayon etmaydi;

olgan bilimlarini amaliyotda qo'llay olmaydi;

Amaliy ko'nikmalarni bajarishda xatoliklarga yo'l qo'yadi;

Vaziyatli masalalarni yechishda qo'pol xatoliklarga yo'l qo'yadi.

6.2 Nazorat savollar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasining "Inson a'zolari va to'qimalarining transplantatsiyasi to'g'risida"gi Qonuni qaysi yilda qabul qilingan?
2. Buyrak transplantatsiyasi amaliyotini o'tagan bemorlarning yagona davlat reyestri qaysi elektron platforma (sayt) orqali yuritiladi?
3. Yangi tug'ilgan chaqaloqlarda buyrak ko'ptokchalari filtratsiyasi tezligi (KFT) va siydikni konsentratsiyalash qobiliyati kattalarga nisbatan qanday bo'ladi?
4. Qiz bolalarda o'g'il bolalarga nisbatan siydik yo'llari infeksiyalarining tez-tez uchrashiga sabab bo'luvchi asosiy anatomik xususiyat nima?
5. Bir sutkalik siydik miqdorining 500 ml dan kamayishi tibbiyotda qanday nomlanadi?
6. Sutka davomida siydik ajralishining butunlay to'xtashi yoki 100 ml dan kamayishi nima deyiladi?
7. Nefrologik kasalliklarda buyrak shishlarining o'ziga xos xarakterli belgilari (tananing qaysi qismida va kunning qaysi vaqtida paydo bo'lishi) nimalardan iborat?
8. Siydikda qon (eritrotsitlar) paydo bo'lishi va uning siydik rangiga ta'sir ko'rsatishi tibbiyotda qanday ataladi?
9. Siydik pufagi (sistit) va uretra yallig'lanishida kuzatiladigan og'riqli va tez-tez siydik ajralishi sindromi qanday nomlanadi?
10. Sutkalik siydikda oqsil miqdorining 3 grammdan oshishi, gipoproteinemiya va shishlar bilan kechadigan og'ir klinik sindromni ayting.
11. Sistoskopiya tekshiruvini o'tkazishdan oldin hamshira bemor qovug'ini qanday tayyorlashi kerak?

12. Endoskopik asboblari (sistoskop) asosan qaysi usul yordamida dezinfeksiya qilinadi va sterilanadi?
13. Ekskretor urografiya (kontrastli rentgen) tekshiruvidan oldin hamshira bemorda qaysi moddaga nisbatan allergiya bor-yo'qligini tekshirishi shart?
14. Ayollarda siydik yo'llari infeksiyasini oldini olish uchun hamshira chov sohasini qaysi yo'nalishda yuvish (tualet gigiyenasi) qoidasini o'rgatishi kerak?
15. Buyrak sanchig'i (kolika) xurujida shifokor kelgunga qadar hamshira og'riqni qoldirish uchun qanday mahalliy issiqlik muolajasini qo'llashi mumkin?
16. Buyrak sanchig'ida og'riq va spazmi yo'qotish uchun birinchi navbatda qaysi guruh dori vositalari qo'llaniladi?
17. Siydikning umumiy tahlili (OAM) uchun peshob namunasini to'g'ri yig'ish qoidalarini tushuntiring.
18. Zimniskiy sinamasi yordamida buyrakning qaysi faoliyati tekshiriladi va siydik sutka davomida nechta idishga yig'iladi?
19. Nechiporenko usulida siydik tahlili o'tkazilganda, siydikning 1 millilitrida qaysi elementlar miqdori hisoblanadi?
20. Siydikni sterillikka (baqposev) ekish uchun namuna qanday idishga va qanday qoidalar asosida olinishi shart?

21. Diabetik nefropatiyaning eng birlamchi, erta laboratoriya ko'rsatkichi nima hisoblanadi?
22. Diabetik nefropatiya qaysi endokrinologik kasallikning o'ziga xos o'ta og'ir asorati hisoblanadi?
23. Diabetik nefropatiyali bemorlarda buyrak faoliyatini asrash uchun arterial bosim (AB) ko'rsatkichi qaysi me'yordan oshmasligi kerak?
24. Diabetik nefropatiyaning terminal (oxirgi) bosqichida qon biokimyoviy tahlilida qaysi qoldiq azot moddalari keskin ko'tariladi?
25. Diabetik nefropatiya rivojlangan bemorning kunlik parhezida asosan qaysi moddalar va mahsulotlar cheklanadi?
26. Yashirin shishlarni va organizmda suyuqlik ushlanib qolishini aniqlash uchun hamshira har kuni qaysi ko'rsatkichlarni o'lchashi va hisoblashi shart?
27. Mikroalbuminuriya tahlilini topshirish tartibini bemorga qanday tushuntirish kerak?
28. Diabetik nefropatiyaning oxirgi bosqichida bemorda qaysi surunkali kasallik yakuniy shakllanadi?
29. Uremik intoksikatsiya sababli terida qichishish va quruqlik bo'lganda, hamshira qanday parvarish choralarini ko'radi?
30. Buyrak yetishmovchiligi fonida insulinning organizmdan chiqib ketishi sekinlashishi bemorda qaysi xavfli holatni (glikemiya o'zgarishi) keltirib chiqarishi mumkin?

31. Ikkala buyrak to'qimasida ko'plab kistalar hosil bo'lishi bilan kechadigan va avtosom-dominant usulda nasldan-naslga o'tadigan kasallik qaysi?
32. Eshitish qobiliyatining pasayishi (karsonlik) va siydikda qon ajralishi (gematuriya) bilan kechadigan nasliy kasallik qanday nomlanadi?
33. Buyrak polikistozi bor bemorlarda kistalar kattalashganda qanday xarakterli simptomlar va og'riqlar paydo bo'ladi?
34. Tug'ma tubulopatiyalarda buyrakning aynan qaysi qismi (funktional birligi) ishi buzilgan bo'ladi?
35. Buyrak polikistozi bor bemorlarda kistalar yorilib ketmasligi uchun qaysi jismoniy harakatlar va tartiblar qat'iyan man etiladi?
36. Nasliy va oilaviy nefropatiyalarni bolalik davrida erta aniqlashda qaysi zamonaviy diagnostika usuli hal qiluvchi hisoblanadi?
37. Glyukozuriya (siydikda qand bo'lishi) qondagi glyukoza miqdori normal bo'lgan holatda kuzatilsa, bu qaysi guruh tug'ma kasalliklarga xos bo'ladi?

38. Polikistoz bilan ogʻrigan bemorda toʻsatdan kuchli ogʻriq va siydikning qizil rganga kirishi (makrohematuriya) nimadan dalolat beradi?
39. Polikistozli bemorlarda buyrak yetishmovchiligi tezlashib ketmasligi uchun hamshira qaysi hayotiy koʻrsatkichni har kuni qatʻiy nazorat qilishi kerak?
40. Tugʻma buyrak nuqsoni bor bolalarni sovuq qotishdan asrash va surunkali infeksiya oʻchoqlarini (karies, tonzillit) oʻz vaqtida davolashning ahamiyati nimada?

41. Homiladorlik davrida kattalashgan bachadon mexanik bosimi natijasida koʻproq qaysi tomondagi siydik yoʻlida siydik dimlanishi kuzatiladi?
42. Homiladorlik nefropatiasining (preeklampsiya) klassik triadasiga kiruvchi uchta asosiy simptomni ayting.
43. Homiladorlikda siydik dimlanishi va infeksiya qoʻshilishi natijasida buyrak joyining yalligʻlanishi qanday nomlanadi?
44. Preeklampsiya bilan ogʻrigan homilador ayolda eklampsiya (taloq tutishi) xavfi yaqinlashayotganini koʻrsatuvchi nevrologik belgilar qaysilar?
45. Gestatsion pielonefritda siydik oqimini yaxshilash va buyrakdagi bosimni kamaytirish uchun homilador ayolga qaysi funktsional holat (pozitsiya) tavsiya etiladi?
46. Homiladorlik nefropatiasida kunlik siydik miqdori (diurez) va vazn oʻlchash orqali qanday shishlar turi aniqlanadi?
47. Preeklampsiya xuruji xavfi bor bemor yotgan xonaning tashqi muhiti (yorugʻlik, shovqin) qanday boʻlishi shart?
48. Homilador ayoldan siydik tahlili olinayotganda qindan ajralmalar siydikka aralashib ketmasligi uchun hamshira qanday koʻrsatma beradi?
49. Homiladorlik nefropatiasida arterial bosim va shishlarni kamaytirish uchun ayolning kunlik taomnomasida nimalar cheklanadi?
50. Eklampsiya xuruji (taloq tutishi va hushdan ketish) boshlangan paytda hamshiraning birinchi navbatdagi shoshilinch yordam harakatlari nimadan iborat?

51. Homila tugʻilgunga qadar bachadon ichida siydik tizimi nuqsonlarini aniqlash diagnostikasi tibbiyotda nima deb ataladi?
52. Homilada buyrak va siydik pufagi anomaliyalarini aniqlashda eng xavfsiz, ommaviy va skrinig hisoblangan usul qaysi?
53. Homilador ayolni rejaviy prenatal ultratovush tekshiruviga (UZI) tayyorlashda hamshiraning psixologik va tashkiliy vazifasi nimadan iborat?
54. Homilada intrauterin (bachadon ichi) davrda ikkala yoki bitta buyrakning umuman rivojlanmay qolishi qanday ataladi?
55. Homiladorlikning nechanchi haftalarida homila aʼzolari anomaliyalarini, jumladan siydik tizimini tekshirish uchun ikkinchi majburiy UZI skriningi oʻtkaziladi?
56. Siydikning siydik pufagidan (qovuqdan) yuqoriga – siydik yoʻli va buyrakka qarab teskari oqishi tibbiyotda qanday ataladi?
57. Homilada ogʻir buyrak nuqsoni aniqlanganda hamshira boʻlgʻusi onaga qanday hamshiralik deontologyasi (ruhiy yordam) qoidalariga koʻra yordam berishi kerak?
58. Homilaning genetik kasalliklari va nuqsonlarini aniqlash uchun homila atrofi suyuqligini igna yordamida teshib namuna olish amaliyoti qanday nomlanadi?
59. Prenatal diagnostika (UZI) xonasida datchiklar va jihozlarni infeksiyadan himoya qilish uchun hamshira ularga qanday ishlov beradi?
60. Homila buyraklari yetishmovchiligi yoki siydik yoʻli bitib qolishi oqibatida homila atrofi suyuqligining kamayishi UZIda qanday nom bilan qayd etiladi?

61. Oʻtkir pielonefrit kasalligining mahalliy (bel sohasidagi) va umumiy intoksikatsiya belgilari nimalardan iborat?

62. O'tkir glomerulonefrit kasalligi odatda qaysi infeksiyon tomoq kasalliklaridan (masalan, angina) 2-3 hafta o'tib rivojlanadi va unga qaysi mikroob sabab bo'ladi?
63. Pielonefrit bilan og'rigan bemorning siydik cho'kmasi tahlilida qaysi hujayralar miqdori keskin ko'p bo'ladi?
64. O'tkir glomerulonefritda yalpi gematuriya (siydikda ko'p qon bo'lishi) hisobiga siydik rangi qanday ko'rinishga keladi?
65. Glomerulonefrit bilan og'rigan bemorlarga Pevzner bo'yicha qaysi raqamli davolash parhezi (stoli) buyuriladi?
66. O'tkir pielonefrit bilan og'rigan, shishlari bo'lmagan bemorga organizmdan mikroob va zaxarlarni yuvib chiqarish uchun qanday ichish rejimi tavsiya etiladi?
67. O'tkir interstitsial nefrit ko'pincha qaysi guruh moddalarga yoki dori vositalariga nisbatan toksik-allergik reaksiya natijasida rivojlanadi?
68. Glomerulonefritli bemorda shishlar dinamikasini va dorilar (diuretiklar) ta'sirini baholash uchun hamshira har kuni qaysi muolajani bajarishi shart?
69. Surunkali pielonefrit qo'zigan davrda antibiotiklar va dori vositalarini yuborishda hamshiraning asosiy majburiyatlari nimalardan iborat?
70. Buyrakning o'tkir yallig'lanish davrida bemorga qat'iy yotoq tartibi (postelniy rejim) buyurilishining asosiy terapevtik sababi nimada?
71. Tibbiyotda buyrak va siydik yo'llarida toshlar hosil bo'lishi bilan kechadigan metabolik kasallik qanday nomlanadi?
72. Toshning siydik yo'li bo'ylab jismoniy harakatlanishi natijasida paydo bo'ladigan o'ta kuchli, chidab bo'lmas to'satdan og'riq xurujini ayting.
73. Buyrak sanchig'i (kolika) bo'lganda og'riq beldan tananing qaysi pastki qismlariga qarab tarqaladi (irradiatsiya qiladi)?
74. Buyrak tosh kasalligini aniqlash va toshning aniq o'lchamini bilish uchun qaysi instrumental (ultratovush va rentgen) usullar qo'llaniladi?
75. Buyrak sanchig'i xuruj qilgan bemorga shifokor kelgunga qadar hamshira birinchi yordam sifatida qanday refleksogen issiqlik muolajasini qo'llashi mumkin?
76. Siydik tahlilida oksalat tuzlari aniqlangan bemorga hamshira qaysi mahsulotlarni (masalan, shokolad, ismaloq) cheklashni o'rgatadi?
77. Urat toshlari (siydik kislotasi diatezi) bor bemorlarga qaysi turdagi mahsulotlarni (go'sht, bulyonlar) kamaytirish tavsiya etiladi?
78. Bemor uy sharoitida siydik bilan birga tosh tushirganini bilish va u toshni laboratoriyaga tekshirishga yuborish uchun siydikni qanday yig'ishi kerak?
79. Buyrakda qayta tosh hosil bo'lishini (retsdiv) oldini olish uchun bemor kunlik suv ichish miqdorini kamida necha litrga yetkazishi kerak?
80. Siydik yo'liga tosh qisilib qolib, siydik oqimi butunlay to'silsa (obturatsiya), buyrak jomida qanday kengayish asorati rivojlanadi?

6.3 Test topshiriqlari:

TEST SAVOLLARI:

1. Pielonefrit nima?

- A. +buyrak parenximasi va jomining infeksiyali yallig'lanish
- B. siydik chiqarish kanalining yallig'lanishi
- C. jinsiy bezning yallig'lanishi
- D. siydikda yiring paydo bo'lishi

2. Pielotsistit nima?

- A. +buyrak parenximasi va siydik chiqaruv kanalining yallig'lanish

- B. siydik qopining yallig‘lanishi
 - C. siydik chiqarish kanalining yallig‘lanishi
 - D. urug‘ tizimchasinig yallig‘lanishi
- 3.Urug‘olib keluvchi kanal devori necha qismdan iborat?
- A. +3 qismdan
 - B. 6 qismdan
 - C. 2 qismdan
 - D. 4qismdan
- 4.Prostata bezinechata bo‘lakdan iborat?
- A. +30-50 ta
 - B. 100-150 ta
 - C. 300-500 ta
 - D. 10-15 ta
- 5.Nikturiya nima?
- A. +kechkurunlari tez-tez siyish
 - B. siydik chiqmay qolishi
 - C. siydikda qon paydo bo‘lishi
 - D. siydik doimiy tomchilab turishi
- 6.Ishuriya nima ?
- A. +bemorlar xoxlamagani
 - B. xolda siydikning noixtiyoriy tomchilab turishi
 - C. siydik qopining yallig‘lanishi
 - D. siydikda yiring paydo bo‘lishi
- 7.Gematouriya nima ?
- A. +qon aralash siydik
 - B. bachadondan qon ketish
 - C. yo‘talganda qon tupurish
 - D. burundan qon ketish
- 8.Piuriya nima ?
- A. +siydikda yiring paydo bo‘lishi
 - B. siydikda eritrotsit paydo bo‘lishi
 - C. siydikda leykotsitlar paydo bo‘lishi
 - D. siydikda ko‘p miqdorda epitelialar bo‘lishi
- 9.Proteinuriya nima?
- A. +siydikda oqsil paydo bo‘lishi
 - B. siydik chiqmay qolishi
 - C. siydikda qon paydo bo‘lishi
 - D. siydikda leykotsitlar paydo bo‘lishi
- 10.Bakteriuriya nima?

- A. +siydikda bakteriyalar paydo bo‘lishi
 - B. siydikda leykotsitlar paydo bo‘lishi
 - C. siydikda eritrotsit paydo bo‘lishi
 - D. siydik kam chiqishi
11. Leykotsituriya nima ?
- A. +siydikda ko‘p miqdorda leykotsitlar paydo bo‘lishi
 - B. siydikda yiring paydo bo‘lishi
 - C. qon aralash siydik
 - D. siydikda ko‘p miqdorda epitelialar bo‘lishi
12. Moyak og‘irligi qancha?
- A. +20-30gr
 - B. 10-50gr
 - C. 1000-1500gr
 - D. 2-3gr
13. Urug‘ pufakchasini necha qismdan tuzilgan?
- A. +3 ta
 - B. 3 ta
 - C. 3 ta
 - D. 3 ta
14. Prostatit:
- A. +prostata bezining infeksiyon yallig‘lanish
 - B. siydik qopining infeksiyon yallig‘lanish
 - C. urug‘ otuvchi kanalning infeksiyon yallig‘lanish
 - D. buyrak parenximasining infeksiyon yallig‘lanish
15. Urofloumetriya:
- A. +siydikni xajmiy tezligini aniqlash
 - B. kechqurungi siydik miqdorini aniqlash
 - C. Siydik qopi hajmini aniqlash
 - D. Siydik tarkibini tekshirish
16. O‘tkir buyrak sanchig‘ida shoshilinch yordam:
- A. +spazmolitiklarni qo‘llash
 - B. og‘riksizlantirish
 - C. kateter quyish
 - D. garmonoterapiya
17. Siydik tutilishi:
- A. + anuriya
 - B. oliguriya
 - C. ishuriya
 - D. gematuriya

18. O'tkir siydik tutilishida shoshilinch yordam:
- A. +kateter quyish
 - B. og'riqsizlantirish
 - C. issik grelka quyish
 - D. spazmolitiklarni qo'llash
19. Tunggi siydik tutolmaslik nima deb ataladi?
- A. +enurez
 - B. anuriya
 - C. oliguriya
 - D. ishuriya
20. Buyrakda siydik ajralishini to'xtashi nima deb ataladi?
- A. +anuriya
 - B. gematuriya
 - C. oliguriya-
 - D. ishuriya
21. Siydik chikarish a'zolarining vazifasi:
- A. +qondan siydik ajratish
 - B. siydik hosil qilish
 - C. jinsiy garmon ishlab chiqish
 - D. spermatozoidlar ishlab chiqish
22. Qovukning vazifasi:
- A. +siydikni to'plovchi
 - B. ikkilamchi siydik hosil qilish
 - C. qondan siydik ajratish
 - D. siydikni bijg'itish
23. Buyraklarning vazifasi:
- A. +siydik hosil qilish
 - B. jinsiy garmon ishlab chiqish
 - C. siydikni to'plovchi
 - D. mikroblarni o'ldirish
24. Buyraklarning struktur funksional birligi bo'lib:
- A. +nefron hisoblanadi
 - B. biriktiruvchi to'qima hisoblanadi
 - C. mushak to'qimasi hisoblanadi
 - D. kipriksimon epiteliyalar hisoblanadi
25. Yetuk yoshdagi odamning har bir buyragida qancha nefron bor?
- A. +1 mln dan ortiq
 - B. 200 tadan ortiq
 - C. 100 tadan ortiq
 - D. 500 tadan ortiq

26. Po'stloq nefroni necha foizni tashkil qiladi?
- A. +80 foiz
 - B. 10 foiz
 - C. 30 foiz
 - D. 15 foiz
27. Yukstamedulliyar nefronlar necha foizni tashkil qiladi?
- A. +20 foizi
 - B. 50 foizi
 - C. 60 foizi
 - D. 15 foizi
28. Bir kunda miqdorda qancha birlamchi siydik hosil bo'ladi?
- A. +150-180l
 - B. 15 l
 - C. 30 l
 - D. 90 l
29. Po'stloq nefronlari koptokchasida filtratsiya qanday amalga oshadi?
- A. +kapillyar tomirlar koptokchasidagi yuqori bosim hisobiga
 - B. buyrak kanalchasining uzunligi hisobiga
 - C. buyrak jomchalarining qalinligi hisobiga
 - D. qonda jinsiy garmonlarning ko'pligi hisobiga
30. Siydik ayirish yo'llari qanday epiteliyadan tuzulgan?
- A. +o'zgaruvchan epiteliy
 - B. kiprikli epiteliyalardan
 - C. silindrsimon epiteliyalardan
 - D. o'zgarmas epiteliyalardan
31. Urug'donda qancha egri-bugri kanalchalar mavjud?
- A. +300-450 tagacha
 - B. 60-80 tagacha
 - C. 100-150 tagacha
 - D. 30-50 tagacha
32. Urug'don kanalchalarning uzunligi:
- A. +70-80 sm
 - B. 2-5 sm
 - C. 30-40 sm
 - D. 20-40 sm
33. Spermatogenez jarayon necha davrga bo'linadi?
- A. +4 ta
 - B. 2 ta

- C. 6 ta
 - D. 5 ta
34. Urug' olib ketuvchi yo'l. qanday epiteliya bilan qoplangan?
- A. +silindrik epiteliy
 - B. o'zgaruvchan epiteliy
 - C. kiprikli epiteliyalardan
 - D. o'zgarmas epiteliyalardan
35. Urug' pufakchalari. nimadan iborat?
- A. +ko'p sonli burmalardan
 - B. bo'lakchalardan
 - C. bezlardan
 - D. jomchalardan
36. Urug' otuvchi kanal devorida qanday mushaklar mavjud?
- A. +silliq mushak
 - B. ko'ndalang talg'ir
 - C. dag'al qalin
 - D. kalta dag'al
37. Prostata bezining sekreti qanday rangga ega?
- A. +sut rangli
 - B. sarg'ish
 - C. tiniq qo'ng'ir
 - D. qizil
38. Ayollarda kuzatiladigan o'tkir uretral sindrom sababi nima bo'lishi mumkin?
- A. +bakteriyalar yoki xlamidiya
 - B. viruslar
 - C. zaharlanishlar
 - D. homiladorlik
39. Qovuq-siydik reflyuksi qanday oqibatga olib keladi?
- A. +urodinamikaning buzilishiga
 - B. asab kasalligiga
 - C. jinsiy zaiflikka
 - D. prostata bezi yallig'lanishiga
40. Ekskretor urografiya:
- A. +buyrakni ajratish funksiyasini tekshirish
 - B. siydik hosil bo'lish protsessini aniqlash
 - C. siydikdan ekma tayyorlash
 - D. buyrak hajmini aniqlash
41. Pastki buyrak qaerda joylashgan:
- A. +qorin orti bo'shlig'ida 3 chi bel umurtqalari to'g'risida

- B. kichiq chanoqda siydik qopi yuqorisida
 - C. Qorin bo'shlig'ida 12 chi ko'krak umurtqalari to'g'risida
 - D. Qorin bo'shlig'ida 7 chi ko'krak umurtqasi to'g'risida
42. Yuqorigi buyrak qaerda joylashgan?
- A. +qorin orti bo'shlig'ida 2 chi bel umurtqalari to'g'risida
 - B. qorin orti bo'shlig'ida 5 chi bel umurtqalari to'g'risida
 - C. qorin bo'shlig'ida 12 chi ko'krak umurtqalari to'g'risida
 - D. qorin bo'shlig'ida 7 chi ko'krak umurtqasi to'g'risida
43. Gidronefroz nima?
- A. +buyrak parenximasida suv yig'ilishi sababli kattalashuvi
 - B. buyraklar o'smasi
 - C. buyrak parenximasinig
 - D. infeksiyon yallig'lanish
 - E. siydikning qonda paydo bo'lishi
44. Polikistoz nima?
- A. +buyrak parenximasida ko'pchilik kistalarning hosil bo'lishi
 - B. siydik qopining infeksiyon yallig'lanish
 - C. buyrak jarohati
 - D. urug' otuvchi kanalning infeksiyon yallig'lanish
45. Biopsiya olish:
- A. +buyrak to'qimasidan namuna olish
 - B. siydikni ekmaga olish
 - C. buyraklarni rentgenologik tekshirish
 - D. siydik hosil bo'lish protsessini aniqlash
46. Venokavagrafiya:
- A. +V.cava inferior ni o'tkazuvchanligini aniqlash
 - B. siydik chiqarish kanalini o'tkazuvchanligini aniqlash
 - C. urug' tizimchasini o'tkazuvchanligini aniqlash
 - D. siydik qopi sig'imini aniqlash
47. Jarroxlik infeksiyasi tasnifiga ko'ra bo'linadi:
- A. +o'tkir va surunkali jarroxlik infeksiya
 - B. o'tkir anaerob va spetsifik jarroxlik infeksiya
 - C. o'tkir chirituvchi va yiringli jarroxlik infeksiya
 - D. o'tkir spetsifik
48. Chirituvchi infeksiyaning maxalliy belgilari:
- A. +jaroxat iflos, xira, qizg'ish – kulrangbo'ladi, suyuq, to'q rangli ajralma
 - B. qaymoqsimon, oqish rangli, quyuq ajralma bo'lishi
 - C. jaroxat yuzasi qizg'ish - kulrang, ko'p qonaydi
 - D. to'qima qonashi kuchayishi, quyuq ajralma bo'lishi

49. To‘qimaning infeksiyaga mahalliy reaksiyalari:
- A. +qizarish, shish, mahalliy harorat ko‘tarilishi, og‘riq funksiyaning buzilishi
 - B. qizarish, shish, umumiy holsizlik bosh og‘rishi
 - C. funksiyaning buzilish harorat ko‘tarilishi qizarish, shish suyaklarning qaqshab og‘rishi
 - D. puls tezlashishi mahalliy harorat ko‘tarilishi og‘riq funksiyaning buzilishi
50. Jaroxatda anaerob infeksiya rivojlanishining oldini olish uchun nima qilish kerak?
- A. +erta jarroxlik ishlovi
 - B. antibiotiklar
 - C. gangrenaga qarshi zardoblar
 - D. giperbarik oksigenatsiya
51. Qorin bo‘shlig‘i azolarini endoskopik tekshirish usuli:
- A. +laparoskopiya
 - B. gastroskopiya
 - C. ezofagoskopiya
 - D. rektomanoskopiya
52. Oralik soxasiga qo‘yiladigan bog‘lam:
- A. +T-simon,
 - B. kleolli, sakkizsimon
 - C. butsimon bog‘lov, boshoksimon, qaytalanuvchi
 - D. boshoqsimon, sakkizsimon, velpo
53. Travmatik toksikozni oldini olishda birinchi tibbiy yordam:
- A. +jarohatlangan yerni bosib qolgan narsadan ozod qilish, sovuq kompress
 - B. lampasli kesish va gipertonik eritma bilan bog‘lash,
 - C. issiq kompress gipsli bog‘lam quyish,
 - D. novokainli blokadalar qilish degidratatsion terapiya, novokainli blokadalar qilish
54. O‘lgan to‘qimani olib tashlash nima deb ataladi?
- A. +nekrotomiya
 - B. amputatsiya
 - C. laparatomiya
 - D. trepanatsiya
55. Terida chegaralangan nekroz bo‘lganda qanday yordam beriladi?
- A. +terining o‘lgan soxalarini kesib olish
 - B. jaroxatni drenajlash
 - C. jaroxat soxasiga UVCh quyish
 - D. levomikol malxamli bog‘lam
56. Birlamchi kechiktirilgan chok qo‘yilish muddati:

- A. +5 - 6 kun
 - B. 3 - 4 kun
 - C. 8 - 15 kun
 - D. 20 - 30 kun
57. Birlamchi jarroxlik ishlovini berishga qarshi ko'rsatma:
- A. +shok
 - B. qon ketishi
 - C. jaroxat ifloslanganda
 - D. OITS da
58. Qon guruxini aniklashda yul kuyiladigan xatolar:
- A. +qon tomchisi juda ko'p olingan bo'lsa, xona xarorati 25° S dan yuqori bo'lsa
 - B. zardob tomchisi qon tomchisidan kichik bo'lsa,
 - C. xona xarorati 25° S dan past bo'lsa
 - D. qon tomchisi zardob tomchisidan kichik bo'lsa, xona xarorati -10° S dan yuqori bo'lsa
59. Travmatik shok boskichlarini aniqlang:
- A. +erektal, torpid
 - B. boshlang'ich, terminal
 - C. erektal, terminal
 - D. xushdan ketish, kollaps
60. Shokning torpid boskichiga xos:
- A. +yuz sianozisi
 - B. qo'l-oyoqlar muzlashi
 - C. tomir urishi susayishi
 - D. qon bosimi pasayishi
61. Abscess-bu?
- A. +chegaralangan yiringli bo'shlik
 - B. to'qimalarning tarkok yiringli yallig'lanishi
 - C. ter bezlarining yiringli yalliqlanishi
 - D. terining yiringli yallig'lanish
62. Guruxi mos kelmaydigan qon quyishda kuzatiladigan erta simptomlar:
- A. +isitma, bel, qorin, to'sh orqasida kuchli og'riqlar
 - B. gipotermiya, apatiya isitma, kuchli og'riqlar
 - C. bel, qorinda og'rik, anuriya, gemoglobinuriya
 - D. isitma, kuchli og'riqlar anizokoriya, bradikardiya
63. Qon preparatlarini aniqlang:
- A. +leykotsitar, eritrotsitar, trombotsitar massa
 - B. trombotsitar massa, poliglyukin, polifer, alvezin

- C. plazma, leykotsitar massa, aminopeptid
 - D. aminokapron kislota, aminokrovin
64. Qon komponentlarini aniqlang:
- A. +protein, albumin, poliglyukin.
 - B. protein, plazma, trombotsitar massa
 - C. leykotsitar, eritrotsitar, trombotsitar massa
 - D. poliglyukin, trombotsitar massa
65. Gemotransfuzion shokka xos bulgan belgilar:
- A. +kuchli qaltirash, ko'krak siqishi
 - B. arterial bosim pasayishi, bradikardiya
 - C. arterial bosim ko'tarilishi taxikardiya
 - D. epigastral zonada og'riq, kuchli kaltirash
66. Fizik antiseptikaga kiradi:
- A. +shikastlangan joyni tampon yordamida drenajlash
 - B. nekrozga uchragan to'qimani olib tashlash
 - C. jaroxatga birlamchi jarroxlik ishlovni berish
 - D. shikastni antiseptik bilan yuvib, ferment quyish
67. Biologik antiseptikaga kirad:
- A. +zardoblar, vaksinalar
 - B. antibiotiklar,
 - C. drenajlar tamponlar,
 - D. bakteritsid lampalar fermentlar, sulfanilamidlar
68. Sterilizatsiyaning fizikaviy turi:
- A. +gamma-nurlantirish
 - B. karbol kislota
 - C. fenol bilan
 - D. galloidlar bilan
69. Yotok yaradabemorni parvarishlash:
- A. +nekrotik to'qimalarni olib tashlash, antibakterial terapiya
 - B. gipertonik eritma va furatsilin bilan bog'lam quyish
 - C. proteolitik fermentlari bilan bog'lamlar loy vannalari
 - D. UVCh, UFO jaroxat atrofidagi teri spirt bilan artiladi parafin
70. Hamshiralik jarayonining beshinchi bosqichini belgilang:
- A. +baholash
 - B. parvarish rejasini tuzish
 - C. bemorni tekshirish
 - D. rejani amalga oshirish
71. Eshitib tekshirib ko'rishnima deb ataladi?
- A. +auskultatsiya

- B. palpatsiya
 - C. perkussiya
 - D. ob'ektiv
72. Hamshiralik jarayonining uchinchi bosqichini belgilang:
- A. +parvarish rejasini tuzish
 - B. parvarish rejasini amalga oshirish
 - C. bemor muammolarini aniqlash
 - D. bemorga tashxis quyish
73. Endogen infeksiyaning o'chog'i hisoblanadi:
- A. +oshqozon-ichak tizimi, nafas olish tizimi
 - B. kriptogen,
 - C. oshqozon-ichak tizimi
 - D. xavo-tomchi, nafas olish tizimi
74. Shifoxona ichki infeksiya qo'zg'atuvchilari hisoblanadi:
- A. +ko'k yiring tayoqchasi, klebsiella, protey, ichak tayoqchasi
 - B. streptokokk, protey, stafilokokk
 - C. ko'k yiring tayoqchasi, pnevmokokk
 - D. protey, stafilokokk, ko'k yiring tayoqchasi, klostridiylar
75. Vilgelm Kornado Rentgen nechanchi yilda kashfiyotini rentgen nurlari deb atagan?
- A. +1896 yilda
 - B. 1996 yilda
 - C. 1902 yilda
 - D. 1904 yilda
76. 1996 yilda birinchi marta buyrak va o't pufagi toshlarini sharxlovchi rentgen suratida namoish qilgan olimning nomini ayting:
- A. +Wittek
 - B. Vilgelm Kornado Rentgen
 - C. Guyon
 - D. S.P. Fedorov
77. Birinchi marta Voelcker va Lichtenberg lar retrograd ureteropielografiya qilishda qanaqa kontrast moddani qo'llaganlar?
- A. +kollargolning 5% li eritmasini
 - B. urografinning 60 % li eritmasini
 - C. natriy yoditning 13,5% li eritmasini
 - D. natriy bromidning 25% li eritmasini
78. Ekskretor urografiya erasini boshlanishiga turtki bo'lgan kontrast moddaning nomi:
- A. +litiy yoditning 25% li eritmasi
 - B. uroselektan

- C. urografin
- D. verografin

79.1918 yilda Weld retrograd pielografiya qilishda qanaqa kontrast moddani qoʻllagan?

- A. +natriy bromidning 25% li eritmasini
- B. natriy yoditning 13,5% li eritmasini
- C. kollargolning 5% li eritmasini
- D. vismut emmulsiyasini

80.Bemorni rentgenografiyaga tayyorlash uchun qanday ovqat maxsulotlarini yeyish inkor qilinadi?

- A. +qora non ,sabzavodlar va noʻxat
- B. kartoshka ,sabzi va goʻsht maxsulotlari
- C. shirinliklar, goʻsht va sut maxsulotlari
- D. oq non, noʻxat, goʻsht va shirinliklar

81.A.Ya. Pыtel bemorlarni siydik yoʻllari rentgenografiyasiga tayyorlashda, ochlik gazlarini oldini olish uchun yengil nonushtaga nimalarni buyuradi?

- A. +suvsiz quruq pishiriqlar – suxari, pechene
- B. ta qovurilgan tuxum va oq non
- C. ½ kosa shoʻrvacha va qora non
- D. 1 stakan kofe va 1 boʻlak oq non

82.Normada necha foiz holatlarda ikkala buyrak bir xil tekislikda joylashadi?

- A. +10 %
- B. 30 %
- C. 40 %
- D. 50 %

83.Buyrak atrofi toʻqimasiga O₂ yuborib rentgenografiya qilish usulini kim va qachon taklif qilgan?

3. Tekshiruvchi ayolning qo‘lini o‘ng qo‘lning barmoqlari bilan bilak – kaft bo‘g‘imi sohasida bo‘shgina ushlanadi va o‘ng qo‘l bilan tekshiruvchining yuragi satxiga qo‘yiladi.
4. Birinchi barmoqni tirsak tomoniga, 2-3-4 barmoqlar esa bilak tomoniga bosiladi.
5. Pulsatsiya qilayotgan arteriyani uchala barmoq bilan paypaslab, uni bilak suyagining ichki tomoniga bosiladi.

6. Tomir urishini kamida 30 sekund sanab, olingan raqam 2 ga ko‘paytiriladi.
Eslatma: Pulsning sekinlashuvi bradikordiya, tezlashuvi taxikardiya deyiladi.

Pulsni – chakka, son va uyqu arteriyasidan aniqlash mumkin.

Pulsni tezlashganligi ko‘p xolatlarda ichki a‘zolarida qon ketayotganligini yoki xaroratni ko‘tarilganligini bildiradi.

– **NAFAS SONINI SANASH;**

Kerakli jihozlar: sekundomer, gemodinamika varaqasi,

Muolajani bajarish bosqichlari;

1. Bemor bilan ishonchli munosabat o‘rnatiladi.
2. Muolaja mohiyati va ketma-ketligini tushuntiriladi.
3. Bemordan muolajaga roziligini olinadi.
4. Hamshira qo‘llari yuviladi va quritiladi.
5. Nafasni sanash uchun bemor krovatga o‘tirgan yoki yotgan bo‘lishi kerak.
6. Bemor oldida joylashib o‘tiriladi va bemorni chalg‘itish uchun uning qo‘lini pulsni aniqlash maqsadida ushlagandek ushlanadi.
7. Hamshira qo‘lini bemorning bilagidan ushlab, agar ko‘krak tipidagi nafasni aniqlash kerak bo‘lsa bemorning ko‘krak sohasiga, qorin tipini aniqlashda epigastral sohasiga pulsni aniqlash maqsadida qo‘ygandek qo‘yadi.
8. Nafas olishni sekundomerdan foydalangan holda sanaladi.
9. Nafas olishni sanalganda uning maromini, sonini, chuqurligini va tipini baholanadi.
10. Nafas harakatlari 1 daqiqa davomida sanaladi.
11. Natija baholanadi va bemorga tanishtiriladi.
12. Hamshira qo‘llari yuviladi va quritiladi.
13. Ko‘rsatkichlar gemodinamika varaqasiga kiritiladi.

– **TANA HARORATINI O‘LCHASH;**

Kerakli jihozlar: termometr, sekundomer, gemodinamika varaqasi, suyuq sovun – 1ml, qog‘oz sochiq – 20 sm, steril qo‘lqop – 1 ta, 70 % li etil spirti – 5 ml, paxta sharcha

Muolajani bajarish bosqichlari:

1. Bemor bilan ishonchli munosabat o‘rnatiladi.
2. Muolaja mohiyati va ketma-ketligini tushuntiriladi.
3. Bemordan muolajaga roziligini olinadi.

4. Kerakli jihozlar tayyorlanadi.
5. Hamshira qo'llari yuviladi va quritiladi.
6. Termometr quritib artiladi va ko'rsatgichi 34-35° S gacha silkitib tushiriladi.
7. Bemorni qulay vaziyatda joylashtiriladi (stulga o'tkaziladi yoki kushetkaga yotqiziladi).
8. Bemorning qo'litiq osti sohasi ko'zdan kechiriladi.
9. Bemorning qo'litiq osti quruq sochiqda artiladi (qo'litiq ostida monelik qiladigan holat bo'lmasligi kerak).
10. Termometrni simob rezervuari teriga hamma tomondan tegib turadigan qilib qo'litiq'i ostiga qo'yiladi.
11. Bemor qo'lini ko'krak qafasiga yaqinlashtirib qisib turadi.
12. Termometrni qo'yilgan vaqti belgilanadi.
13. Tana harorati o'lchash muddati 10 daqiqa.
14. Tekshiruv natijasi bemorga tanishtiriladi.
15. Termometr ko'rsatgichi gemodinamika varaqasiga qayd etiladi.
16. Termometr yuqumsizlantiriladi (1% xloromin eritmasiga 20-30 daqiqaga to'liq cho'ktiriladi).
17. Termometr yuqumsizlantiruvchi eritmadan olinadi, oqar suvda chayiladi va quritiladi.
18. Termometr ko'rsatgichi simob rezervuarigacha silkitib tushiriladi.
19. Termometr idishiga solib qo'yiladi.
20. Hamshira qo'llari yuviladi va quritiladi

Bemorni VAZNINI ANIQLASH.

Kerakli jihozlar: tibbiy tarozi, dezinfeksiyalovchi eritma va dinamik varaqa.

Muolajani bajarish bosqichi:

1. Tibbiy tarozi muvozanatga keltiriladi.
2. ustki kiyimlari yechintiriladi.
3. Ayol tarozi maydonchasining o'rtasiga zatvorning ko'tarib qo'yilgan xolatida extiyotlik bilan chiqariladi.
4. Ayolni qattiq silkinib ketishdan saqlash lozim.
5. Muvozanat xolati yuzaga keltirilgan zatvor pastga tushiriladi.
6. Gavda massasini tarozi pastki va yuqoriga plankalarda yuklar to'xtagan bo'limlarining ikkita soni yig'indisi bo'yicha aniqlanadi.
7. O'lchangandan olingan ma'lumot dinamik varaqasiga belgilanadi.
8. Tarozi dezinfeksiya eritma bilan artiladi.

ISHLATILGAN TIBBIY ASBOB-ANJOMLARNI BIRLAMCHI

ZARARSIZLANTIRISH;

Kerakli jihozlar: kleyonkali fartuk ,himoya ko'z oynagi, xo'jalik qo'lqop, 0.5% gipoxlorid eritmasi

Bajarish algoritmi:

1. Qo'llar yuviladi, quritiladi.

2. Hamshira maxsus kiyim: xalat ustida poliyetilen fartuk, ko‘z oynagi rezina qo‘lqop kiyadi.
3. Tibbiy asboblar qismlarga ajratiladi va 0,5% dez.eritmaga 10 daqiqa bo‘ktiriladi.
5. Oqar suvda chayiladi. Tibbiy asboblar lotokka solib biksga joylanib, markaziy sterelizatsiyaga bo‘limiga yuboriladi.
9. Qo‘lqoplar, fartuk yechiladi, zararsizlantiriladi.

Inyeksiyalarni bajarish (mushak orasiga, vena ichiga).

MUSHAK ORASIGA INYEKSIYA QILISH.

Kerakli jihozlar: Ilig‘ suv, sovun, steril salfetka yoki quruq sochiqlar, steril qo‘lqoplar, bir martalik 5-10 ml li shprits, 70% li spirt eritmasi, steril paxta sharchalar, yuboriladigan dori, 0,5%li xlorli eritmasi, fantom.

Bajarilish tartibi:

1. Bemorga dori moddasi va qilinadigan inyeksiya haqida ma‘lumot beriladi.
 2. Undan inyeksiya qilish vaqtida to‘siq bilan o‘rash kerak-yo‘qligini so‘raladi (agar bemor xonada yolgiz bo‘lmasa).
 3. Qo‘llar sovun bilan ilig‘ suvda yuviladi, quruq qilib artiladi va steril rezina qo‘lqop kiyiladi.
 4. Dori moddasi shpritsga tortiladi.
 5. Bemorga qilinadigan inyeksiya uchun qulay vaziyatni egallashga yordam beriladi (“qorinda” yoki “yonbosh”).
 6. Inyeksiya qilinadigan joyni belgilang, qo‘lqopni keying.
 7. Inyeksiya qilinadigan joyni spirtga yoki yodga namlangan paxta sharcha bilan arting.
 8. Inyeksiya qilinadigan joy fiksatsiya qilinadi.
 9. Ignani 2-3mm teri ustida ushlanib, 90⁰ ostida mushakka kiritiladi.
 10. Chap qo‘lni porshenga o‘tqazib dori moddasi yuboriladi.
 11. Ignani odatdagidek chigariladi.
 12. Paxtani teridan olmasdan turib inyeksiya qilingan joy sekin uqalanadi qo‘lqoplar yechiladi.
 13. Bemorga qulay vaziyatni egallashiga yordam beriladi.
 14. To‘siq olib qo‘yiladi.
- Eslatma:** Ilitilgan moyli eritmani kiritishdan oldin, porshen yuqoriga tortiladi, qon chiqmasagina eritma yuboriladi.

VENA ICHIGA INYEKSIYA QILISH

Kerakli jihozlar: Iliq suv, sovun, steril salfetka yoki quruq sochiqlar, steril qo‘lqoplar, bir martalik 5-10 ml li shprits, 70% li spirt eritmasi, yostig‘cha, rezina jgut, steril paxta sharchalar, kleyonka, 0,5%li xlorli eritmasi.

Bajarilish tartibi:

1. Bemorga dori moddasini yuborish haqida ma‘lumot beriladi.
2. Shpritsga dori moddasi tortiladi.
3. Bemorga qulay vaziyatni egallashda yordam beriladi.
4. Bemorning tirsagi ostiga kleyonka yostig‘cha qo‘yiladi, qo‘lqoplar kiyiladi.

5. Yelkaning o'rta qismi rezina jgut bilan bo'g'lanadi, bunda bilak arteriyasidagi puls o'zgarishligi lozim. Jgutni shunday bog'lash kerakki, uning ikki uchi yuqoriga, halqasi esa pastga yo'nalgan bo'ladi.

6. Bemordan kaftini bir necha marotaba sigib ochish so'raladi, bir vaqtning o'zida tirsak bug'imini spirtga namlangan steril paxta bilan artiladi. Periferiyadan markazga harakat qilib, tomirlar to'lig'lig'i aniqlaniladi.

7. Shpirts olinadi, ko'rsatg'ich barmog' bilan igna kanyulasini, boshga barmog'lar bilan esa silindr yuqorisidan ushlaniladi.

8. Ignaning o'tkazuvchanligini va shpirtsda havo yo'g'lig'i tekshiriladi.

9. Chap qo'l bilan tirsak bukimidagi teri tortiladi.

10. Shpirts qolatini o'zgartirmasdan, igna kesimini yuqoriga va teriga parallel ushlab venaga kiritiladi.

11. Chap qo'l bilan venani aniqlagan holda ignaning yo'nalishini nisbatan o'zgartirib bo'shliqga tushganlikni his qilguncha, asta-sekinlik bilan vena teshiladi.

12. Igna venada ekanligiga ishonch hosil qilinadi, porshen o'zimizga tortiladi (shpirtsda qon hosil bo'lishi lozim).

13. Jgutni chap qo'l bilan bir uchidan tortib yechiladi, bemordan mushtini ochish so'raladi.

14. Shpirts holatini o'zgartirmasdan chap qo'l bilan porshen bosiladi va dori asta-sekinlik bilan yuboriladi.

15. Inyeksiya qilingan joy spirtga namlangan paxta sharchada bosilib igna chiqariladi.

16. Qon bilan ifloslangan paxta sharchalar olib tashlaniladi, qon tekkan joylar 0,5%li xlorli eritma bilan artiladi.

17. Qo'lqoplar yechiladi va ular 0,5%li xlorli eritmaga solinadi.

18. Qo'llar yuviladi va sochiq yoki salfetka bilan artiladi.

Eslatma: Venaga inyeksiya qilish uchun ko'proq to'lishgan venani topish kerak. Agar shpirtsda mayda havo pufakchalari bo'lsa, uni silkitib, mayda pufakchalar katta pufakchaga aylantiriladi va uni ignadan chiqarib yuborish oson bo'ladi.

Tizimni eritma yuborishga tayyorlash;

Kerakli jihozlar: disfunktsional krovat, iliq suv, sovun, steril sochiq yoki salfetka, steril rezina qo'lqop, shtativ, sistema.

Bajarilish tartibi:

Xamshira qo'llarini ilig' suvda sovun bilan yuviladi.

Steril sochiq yoki salfetka bilan artiladi.

Steril rezinali qo'lqoplar kiyiladi.

Bemor disfunktsional krovatga yotgiziladi.

Shtativga dorili sistema qo'yiladi.

Tomir ichiga dori quyish quyidagicha tayyorlanadi.

Dori vositasi aralashtiriladi.

Eritma tomir ichiga sistemaning ignasi orqali kirgiziladi.

Eritmaning tezligi vrach ko'rsatmasiga qarab qo'yiladi.

Bemor ahvoli doimo nazorat qilinadi.

Eslatma: Bemor ahvoli doimo nazorat qilinadi.

ISHLATILGAN TIBBIY ASBOB-ANJOMLARNI BIRLAMCHI ZARARSIZLANTIRISH;

Kerakli jihozlar: kleyonkali fartuk ,himoya ko‘z oynagi, steril qo‘lqop,peregidrol

Bajarish algoritmi:

1. Qo‘llar yuviladi, quritiladi.
2. Hamshira maxsus kiyim: xalat ustida poliyetilen fartuk, ko‘z oynagi rezina qo‘lqop kiyadi.
3. Tibbiy asboblar qismlarga ajratiladi va 0,5% dez.eritmaga 10 daqiqa bo‘ktiriladi.
5. Oqar suvda chayiladi. Tibbiy asboblar lotokka solib biksga joylanib, markaziy sterelizatsiyaga bo‘limiga yuboriladi.
9. Qo‘lqoplar, fartuk yechiladi, zararsizlantiriladi.

SIYDIK PUFAGINI KATETERLASH.

Kerakli jihozlar: ayollar kateteri, lotok, pinset, sudno, kornsang, 1% yod eritmasi yoki 96 % spirt, cho‘tkada, steril qo‘lqoplar.vazelin moyi 50 ml, dez eritma 300 ml, suyuq sovun 300 ml,

Bajarilish tartibi:

ayolning tashgi jinsiy a‘zolari kuchsiz dez. eritma bilan yuviladi.

Xamshira qo‘llari cho‘tkada sovunlab iliq suvda yuviladi,steril rezina qo‘lqoplar kiyiladi.96 % li spirt bilan artiladi.

Chap qo‘lning ishora va bosh barmog‘lari bilan jinsiy lablar keriladi.

Siydik chiqarish kanali tashqi teshigi ochiladi.

Elastik kateter o‘ng qo‘lga olinadi.

Kateterning bir uchi uretra orqali qovuqqa avaylab kiritiladi.

Siydik ajralib bo‘lgandan so‘ng, qolgan qoldiq siydikni chiqarish uchun qovuq soxasi bir oz bosiladi.

Kateter asta-sekin chiqarib olinadi.

Ishlatib bo‘lingan kateterlar oqar suvda yuviladi.

0,5 % li xloraminga 10 daqiqaga solinadi.

Kateter dezinfeksiyalovchi eritmadan olinib oqar suvda yuviladi,qaynatiladi

Rezina qo‘lqoplar yechiladi va 0,5%li xlor eritmaga solinadi.

Qo‘llar yuviladi.

Eslatma: Kateterning tashqi uchida siydik ko‘rinishi qovuqqa tushganlikdan dalolat beradi.

TOZALOVCHI HUQNA O‘TKAZISH TEXNIKASI.

Kerakli jihozlar: Esmarx krujkasi, 1,5 metrli buragichli yoki qisqichli birlashtiruvchi trubkadan iborat sistema, shtativ, steril rektal uchlik, 1,5 - 2 litr hajmdagi 20⁰S li suv, suv termometri, shpatel, sudno.

Kerakli xom – ashyo : tibbiy vazelin, kleyonka va taglik, kleyonkali fartuk, maxsus kiyim, bir marta qo‘llaniladigan qo‘lqoplar.

Bajarish algoritmi:

1. Bemor bilan samimiy aloqa o‘rnatib, muolaja mohiyati va maqsadi tushuntiriladi. Moneliklar yo‘qligi aniklanadi. Bemorni muolajaga ruhan tayyorlanadi.

2. Muolaja maxsus xonada o'tkaziladi. Buning iloji bo'lmaganda bemor oldini shirma bilan to'sib, bemor uchun qulay sharoit yaratiladi.
3. Maxsus kiyim, qo'lqoplar kiyiladi, kleyonka fartuk taqiladi.
4. Esmarx krujkasi, buragichli yoki qisqichli birlashtiruvchi trubkadan iborat sistemani yig'ib, uchlik o'rnatiladi va 1,5-2 litr suv solinadi.
5. Suv haroratini suv termometri bilan tekshiriladi.
6. Esmarx krujkasini poldan 1 metr balandlikda ko'tarib, shtativga o'rnatiladi (bemordan 30 sm dan baland bo'lmasligi kerak).
7. Uchlikka quyuqqilib shpatel yordamida vazelin surtiladi.
8. Sistema to'ldiriladi. Buragichni ochib xavo chiqariladi. Buragich yopiladi.
9. Bemorni chap yonboshiga oyoklarini chanok-son va tizza bo'g'imlarida bukib, qorniga tortib yotishi so'raladi. Agar bemorning chap yonboshida yotishining iloji bo'lmasa xo'qnani bemor chalqancha yotganida o'tkaziladi.
10. Bemorning dumbalari tagiga kleyonkani tog'oragacha osilib turadigan kilib solinadi.
11. Chap qo'lning 1 va 2 - barmoqlari bilan dumbalarni kerib, o'ng qo'l bilan uchlikni extiyot bo'lib orqa chiqaruv teshigiga kiritiladi. Bunda uchlikni avval kindikka yo'naltirib 3-4 sm, so'ng umurtqa pog'onasiga parallel yo'naltirib 8-10 sm gacha kiritiladi.
12. Buragichni ochib, suv maromi tartibga solinadi. Bu vaktida bemordan o'zini bo'sh qo'yib, qorni bilan nafas olishi so'raladi.
13. Suvni yuborib bo'lgach, buragichni yopib, uchlik chikariladi.
14. Sistemadan ajratib, darxol zararsizlantiruvchi eritmaga solinadi.
15. Bemordan 5-10 dakika yotib, suvni ichaklarida ushlashni taklif kilinadi.
16. Bemorni hojatxonagacha kuzatiladi yoki sudno beriladi. Agar bemor yotgan holda bo'lsa, iloji bo'lsa krovatning bosh tarafini 45-60° gacha ko'tariladi.
17. Sudnoni olib, axlatni ko'zdan kechirib, ustini kleyonka bilan yopiladi.
18. Bemor osti yuviladi.
19. Sistemani ajratib, zararsizlantiruvchi eritmaga solinadi.
20. Maxsus kiyim, kulkoplarni va fartukni yechib, zararsizlantiruvchi eritmaga buktiriladi.
21. Amaldagi buyruq asosida jihozlar zararsizlantiriladi.

Asoratlari:

1. To'g'ri ichakning jarohatlanishi.
2. Jihozlarni yetarli zararsizlantirmaslik ichak infeksiyasini tarqalishiga sabab bo'ladi.

Eslatma :

- Huqna qilganda suvning harorati qabziyat turiga bog'liq bo'ladi: atonik qabziyatda 12-20°S, spastik qabziyatda 37-42°S, qabziyatda 20°S bo'lishi kerak.
- Bemor spastik xarakterdagi og'riqqa shikoyat qilsa, og'riq to'xtaguncha muolajani to'xtatish kerak. Og'riq to'xtamasa shifokorga xabar qilinadi.

Bemorni siydik chiqarish tizimining rentgenologik tekshiruviga tayyorlash.

Maqsad : Siydik chiqarish azolari kasalliklarini aniqlash.

Ko'rsatma: Siydik chiqarish azolari kasalliklari

Kerakli jihozlar: sergozin, urotrast, verognost, triyotrast, 3% li kaliy yodid, kontrast modda.

Bajarilish qadamlari:

1. Buyrak va siydik chiqarish tizimini rentgenologik tekshirish uchun yodli kontrast moddalar - sergozin, urotrast, verognost, triyotrast va boshqalar qo'llaniladi.
2. Kontrast moddalar to'g'ridan-to'g'ri siydik tizimiga (sistoskop va kateter orqali qovuqqa, siydik yo'llariga va buyrak jomchasiga) yoki venaga yuboriladi.
3. Venaga yuborilganda kontrast modda buyraklar orqali tezda chiqariladi.
4. Kontrast modda yuborilgandan keyin 10, 20, 30, 45 va 60 daqiqa o'tgach olingan tasvirlarda buyrak jomchalari, siydik yo'llari va qovuqning konturlari ko'rinib turadi.
5. Yodga ortiqcha sezuvchanlik bo'lganda, buyrakning po'st qavati shikastlanadigan kasalliklarda (nefrit, nefroz, nefrosklerozlarda), silning faol turi, og'ir jigar xastaliklarida, Bazedov kasalligida, yurak yetishmovchiligida, anuriyada yodli kontrast moddalarni yuborishga ruxsat yetilmaydi.
6. Piyelografiya qilishdan ikki kun avval yodga sezuvchanlikni sinab ko'rish zarur, qaysi moddani ishlatish mo'ljallanayotgan bo'lsa, o'sha kontrast modda yeritmasidan venaga 1-2 ml yuboriladi va kuniga 2-3 marta bir osh qoshiqdan 3% li kaliy yodid yeritmasi ichiriladi.
7. Yodizm alomatlari (tumov, terida toshmalar va shishlar, yet uvishishi, harorat ko'ta-rilishi) kuzatilsa, tekshirish bekor qilinadi.
8. Bemor ichaklarida gazlar imkoni boricha kamroq bo'lishi uchun tekshirishdan avval, uch kun mobaynida u parhez qilishi kerak.
9. Ovqat tuzi kam, oson hazm bo'ladigan, asosan yog'lar va oqsillardan iborat bo'lishi lozim.
10. Tekshirishdan bir kun avval quruq ovqat yeyish tayinlanadi.
11. Tekshirishdan 12 soat oldin yesa bemorga hech narsa berilmaydi.
12. Bundan tashqari, tekshirishdan bir kun avval va undan 2 soat oldin tozalovchi huqna qilinadi.
13. Qabziyatga moyillik bo'lsa, tayyorgarlik davrida bemorga yengil surgilar (itshumurt, ravoch), meteorizmدا yesa karbolen yoki moychechak nastoykasi beriladi.

14. Tekshirish oldidan qovuq bo'sh bo'lgani ma'qul.

Ekskretor urografiya o'tkazish tartibi:

Maqsad: buyrak, buyrak jomi, siydik yo'li va qovuqning anatomik holatini va ularning ish faoliyatlarini aniqlash.

Ko'rsatma: Siydik chiqarish azolari kasalliklari

Kerakli jihozlar: rentgenokonstrast moddalar : triyodtrast, urotrast, urografin, xaynek

Bajarilish qadamlari

1. Yosh bolalarda rentgenokonstrast moddalar faqat venaning ichiga yuborilmay
2. Teri ostiga, mushak ichiga yoki og'iz orqali ichakka ham yuboriladi.
3. Yekskretor urografiya qilishga asosiy to'sqinlik yod preparatlarini to'g'ri kelmasligi bo'ladi,
4. Shuning uchun to'g'ri kelmasligini surab olishdan tashqari bemorni ishlatilayotgan preparatga shaxsiy sezgirligi ham tekshirib ko'riladi.
5. Buning uchun avval 1 ml preparatni vena ichiga yoki asosiy miqdorning birinchi millilitri asta-sekin quyilib, bemorning ahvoli kuzatiladi.
6. Yekskretor urografiya qari odamlarda, xafaqon kasalligiida, jigar kasalliklarida, buyrak yetishmovchiligida yehtiyotkorlik bilan bajariladi.
7. Tiosulfat natriy o'ziga yot bo'lgan moddalarni neytrallaydigan modda bo'lib hisoblanadi.
8. Buyrak ish faoliyati qoniqarli bo'lgan bemorlarda 60-75 % 20 ml kontrast moddani venaga yuborish yetarli bo'ladi.
9. Ba'zi hollarda tekshirishni ikki yoki uch meyorli qilib o'tkaziladi (yeng ko'pi bilan 1 ml kontrast modda 1 kg tananing og'irligiga to'g'ri keladi).
10. Suratlarini olish vaqti, bemor buyragining ish faoliyatiga va tekshirishning qo'yilgan vazifasiga qarab belgilanib, nefrogrammani (rentgenokonstrast moddasi bilan buyrak parenximasini to'ldirgan holatda olingan surati) 1 daqiqada ko'rinish boshlashi

11. Rentgenokontrast moddaning yekskretsiyasi va buyrak jomi, siydik yoʻlining tasviri, odatda 3-5 daqiqada aniqlanishi hisobga olinadi.
12. Rentgenokontrast moddani yuborib, 7-10 daqiqadan soʻng, odatda birinchi surat olinadi
13. Keyingisi oldingisining natijasiga qarab (rentgenokontrast moddani yuborib oʻrtacha 20-25 daqiqadan keyin) olinadi.
14. Qari kishilarda rentgenokontrast moddani chiqarish asta-sekin boʻladi.
15. Baʼzi vaqtlarda kechki rentgenogrammalar talab qilinadi (1-2 soat va undan ortiqroq).

2.2.3. Buyrak kasallik asoratlarida tez tibbiy yordam koʻrsatish.

1 □-bosqich. Holatni tezkor baholash (ABCDE)

A – Airway (nafas yoʻli)

- Hush holatini baholash
- Nafas yoʻli ochiqligini tekshirish
- Kerak boʻlsa: havo yoʻlini ochish (jaw thrust)

B – Breathing (nafas)

- Nafas soni, chuqurligi
- Oʻpka auskultatsiyasi (nam xirillashlar?)
- SpO₂ oʻlchash
- ☞ Oʻpka shishi boʻlsa — O₂ 5–10 l/min

C – Circulation (qon aylanish)

- AB, puls, teri rangi
- Yurak ritmi (EKG boʻlsa)
- ☞ Gipertenziya / kollapsni aniqlash

D – Disability (nevrologik holat)

- Hush darajasi (GCS)
- Uremik ensefalopatiya belgilarini aniqlash

E – Exposure

- Shishlar, teri qichishishi, hid (uremik hid)

Shoshilinch hamshiralik yordami

● Giperkaliemiya gumonida:

- Vena yo‘lini ochish
- EKG monitoring
- Shifokor ko‘rsatmasiga binoan:
 - 10% kalsiy glyukonat
 - Glyukoza + insulin
- Kaliyni ovqatdan cheklash

● O‘pka shishida:

- Bemorni **yarim o‘tirgan** holatga keltirish
- Oksigenoterapiya
- Suyuqlikni to‘xtatish
- Diurezni nazorat qilish

● Anuriya / OBY da:

- Siydik kateterini aseptik qo‘yish
- Soatlik diurezni hisoblash
- Suyuqlik balansini yuritish

4 □-bosqich. Laborator va instrumental tayyorgarlik

- Qon: kreatinin, mochevina, K^+ , Na^+
- Qon gazlari (atsidoz)
- Siydik umumiy tahlili
- EKG

5 □-bosqich. Gemodializga tayyorlash

Hamshira bajaradi:

- Bemorni psixologik tayyorlash
- Qon guruhi, OITS, gepatitlar tekshiruviga tayyorlash
- Vena kirish joyini tayyorlash
- Hujjatlarni rasmiylashtirish

☞ Shoshilinch gemodializ ko‘rsatmalari:

- $K^+ > 6,5$ mmol/l
- O‘pka shishi
- Og‘ir atsidoz
- Uremik koma

- **Qonda glukoza miqdorini aniqlash**

- **Maqsad:** Qandli diabetda bemorlarni davolash va asoratlarini oldini olish..
- **Kursatma:** Qandli diabet kasalligi bor bemorlar.
- **Kerakli jixozlar:** Glukometr asbobi, lotok , quruq paxta, bir martalik qo‘lqoplar

- **Bajarilish qadamlari:**

- 1. Qo‘llar yuviladi va qurutiladi.
- 2. Bir martalik qo‘lqoplar kiyiladi
- 3. Bemor qulay joyga o‘tirg‘iziladi.
- 4. Glukometr asbobini ishlayotganligi tekshiriladi.
- 5. Bemorning nomsiz barmog‘ini quruq paxta bilan artib olamiz.
- 6. Starifikator asbobi yoramida barmoqni teshamiz.
- 7. Birinchi chiqqan qonni artib tashlaymiz
- 8. Keying chiqqan qonga glukometr tespaloskasini yaqinlashtiramiz.
- 9. U o‘ziga kerakli qonni tortib oladi.
- 10. 10 sekund ichida natijani ko‘rsatadi.
- 11. Qo‘lqoplar yechilib qo‘llar yuviladi.
- **Yeslatma:** Normada qonda qand miqdori nahora o‘lchaganimizda 7 mol gacha kun davomida yesa 11 mol gacha bo‘lishi kerak.

- **Siydikdagi qand mikdorini aniqlash.**

- **Maqsad:** Siydikda qand bor yoki yo‘qligini aniqlash.
- **Ko‘rsatma:** Qandli diabet kasalliklarida.
- **Kerakli jixozlar:**Toza quruq idish, test tilimchalari, perchatka.

- **Bajarilish qadamlari:**

- 1. Tekshiruv uchun toza, quruq idishga yig‘ilgan yertalabki siydikning ikkinchi porsiyasi ishlatilishi kerak.
- 2. Taxlil siydik yig‘ilgandan keyin 2 soat ichida o‘tkazilishi maqsadga muvofiq.
- 3. Perchatka kiyiladi.
- 4. Siydik yaxshilab aralashtiriladi.
- 5. Siydikdagi qand miqdorini aniqlash uchun test tilimchalaridan foydalaniladi.
- 6. Penaldan tilimcha olinadi va qopqog‘i yopiladi.
- 7. Tilimcha tekshirilayotgan siydikka 2-3 soniyaga tushuriladi.
- 8. Tilmcha olinadi va siydik qoldig‘i idish chetiga artiladi.
- 9. Test reaktiv zonaning rangi o‘zgarganda musbat hisoblanadi.
- 10. Qand miqdoriga qarab sinamadagi reaktiv zonaning boshlang‘ich sariq rangi qizg‘ish jigar rangacha o‘zgaradi.

Nasliy nefropatiya va buyrak-siydik yo'llari tug'ma nuqsonlarini erta aniqlashda hamshiraning kompleks diagnostik faoliyati

2. Amaliy ko'nikmaning maqsadi

Talabalar quyidagilarni mukammal o'zlashtirishi kerak:

- Nasliy nefropatiya va tug'ma nuqsonlarni **erta bosqichda aniqlash**
- Zamonaviy **laborator, instrumental va genetik diagnostika** usullariga bemorni tayyorlash
- Diagnostika jarayonida **hamshiralik kuzatuv va xavfsizligini ta'minlash**
- Ota-ona va bemor bilan **to'g'ri muloqot olib borish**
- Olingan natijalarni **tahlil qilish va hujjatlash**

3. Amaliy ko'nikmani bajarish joyi

- Poliklinika
- Statsionar bo'lim
- Neonatologiya yoki pediatriya bo'limi

4. Kerakli jihozlar va vositalar

- Tonometr (bolalar va kattalar uchun)
- Fonendoskop
- Termometr
- Elektron tarozi, bo'y o'lchagich
- Steril siydik yig'ish idishlari
- Qon olish uchun steril asboblar
- Laborator yo'llanma blanklari
- UTT, KT/MRT, genetik tekshiruvga yo'llanmalar
- Dezinfeksiya vositalari
- Hamshiralik hujjatlari

AMALIY KO'NIKMANI BAJARISH BOSQICHLARI

I-BOSQICH. Bemorni aniqlash va dastlabki suhbat

Hamshiraning harakatlari:

1. Bemor yoki bolaning shaxsini aniqlaydi
2. Yoshini, jinsini aniqlaydi
3. Bemor (yoki ota-ona)dan shikoyatlarni so'raydi:
 - tez-tez siydik yo'llari infeksiyasi
 - siyishning kamayishi yoki ko'payishi
 - shishlar (yuz, oyoq, ko'z atrofi)
 - bel sohasidagi og'riq

- bolalarda o‘shidan qolish

Amaliy ahamiyati:

Nasliy va tug‘ma buyrak kasalliklari ko‘pincha **erta, lekin e‘tiborsiz belgilar** bilan boshlanadi.

II-BOSQICH. Nasliy (oilaviy) anamnezni chuqur yig‘ish

Hamshira aniqlaydi:

- Ota-onada yoki qarindoshlarda:
 - buyrak polikistozi
 - surunkali buyrak yetishmovchiligi
 - gemodializ
 - buyrak transplantatsiyasi
 - bolalikda noma‘lum sabablarga ko‘ra o‘lim

Muhim jihat:

- Qarindoshlar orasidagi **qarindoshlik nikohi** aniqlanadi

Hujjatlash:

- Ma‘lumotlar hamshiralik kuzatuv varaqasiga yoziladi

III-BOSQICH. Homiladorlik va perinatal anamnez (bolalarda)

Hamshira aniqlaydi:

- Homiladorlik vaqtida:
 - UTTda buyrak anomaliyasi
 - kam suvlik (oligogidramnion)
- Tug‘ruq vaqti:
 - muddatidan oldin tug‘ilish
 - past vazn

Ahamiyati:

Prenatal diagnostika tug‘ma nuqsonlarni **tug‘ilishdan oldin** aniqlash imkonini beradi.

IV-BOSQICH. Fizik ko‘rik va hayotiy ko‘rsatkichlarni baholash

Hamshira bajaradi:

1. Arterial bosimni o‘lchaydi (yoshiga mos manjet bilan)

2. Tana vazni va bo'yini o'lchaydi
3. Teri va shilliq qavatlarini baholaydi
4. Shishlarni aniqlaydi
5. Qorin va bel sohasini ko'zdan kechiradi

Muhim belgilar:

- Bolada gipertenziya → tug'ma buyrak patologiyasi belgisi
- O'sishdan qolish → surunkali jarayon belgisi

V-BOSQICH. Siydik chiqarishni baholash

Hamshira:

- Siydik miqdorini hisoblaydi
- Siydik rangini, hidini baholaydi
- Bolalarda sutkalik diurezni nazorat qiladi

Patologik belgilar:

- Oliguriya
- Poliuriya
- Gematuriya

VI-BOSQICH. Laborator diagnostikaga tayyorlash

Hamshira tashkil qiladi:

1. Umumiy siydik tahlili
2. Mikroalbuminuriya
3. Qon biokimyosi:
 - kreatinin
 - mochevina
 - elektrolitlar

Amaliy bajarish:

- Ertalabki o'rtacha siydik yig'ilishini tushuntiradi
- Namuna to'g'ri belgilanganini tekshiradi
- Qon olishda aseptik qoidalarga rioya qiladi

VII-BOSQICH. Zamonaviy instrumental diagnostikaga tayyorlash

Hamshiraning vazifalari:

- Buyrak va siydik yo'llari UTT ga tayyorlash
- Zarurat bo'lsa KT yoki MRT ga yo'llash

- Kontrast tekshiruvlar oldidan allergiya anamnezini yig'ish

Muhim jihat:

UTT — tug'ma nuqsonlarni aniqlashda **asosiy va xavfsiz usul**

VIII-BOSQICH. Genetik diagnostikaga tayyorlash

Hamshira:

1. Bemor va ota-onaga tekshiruv maqsadini tushuntiradi
2. Psixologik qo'llab-quvvatlaydi
3. Qon namunasi olishga tayyorlaydi

Ahamiyati:

Genetik tekshiruv nasliy nefropatiyani **aniq tasdiqlaydi**

IX-BOSQICH. Natijalarni baholash va shifokorga axborot berish

Hamshira e'tibor beradi:

- Kreatinin oshishi
- Elektrolit disbalansi
- Buyrak struktur anomaliyasi

Harakat:

- Shifokorga **zudlik bilan xabar beradi**

X-BOSQICH. Hamshiralik xulosasi va hujjatlashtirish

Hujjatlarda qayd etiladi:

- Risk omillari
- Aniqlangan belgilar
- O'tkazilgan diagnostika usullari
- Tavsiyalar

XI-BOSQICH. Bemor va ota-onaga batafsil maslahat

Hamshira tushuntiradi:

- Muntazam nazorat zarurligi
- Infeksiyalardan saqlanish
- Suyuqlik va parhez rejimi
- Qachon shoshilinch murojaat qilish kerakligi

2.4.3 Buyrak polikistozi va tug'ma tubulopatiya tashxisli bemorlarda hamshiralik parvarishi.

Hamshira bajara olishi kerak:

- 1. Eritrotsitlarning umumiy sonini sanash texnikasini:**
- 2. Siydik qopini kateterlash texnikasini**

Eritrotsitlarning umumiy sonini sanash texnikasi ko'rsating.

Maqsad: Qonni klinik tekshrish.

Ko'rsatma: Qonning shaklli yelementlarida yuzaga keladigan patologik xolatlarni aniqlashda, organizmdagi gemoglobulin miqdorini aniqlashda.

Kerakli jixozlar: mikroskop, goryaayev kamerasi, 0.9% natriy xlor, probirka, qoplagich oyna.

Bajarilish qadamlari:

- 1.** 4,0 ml 0,9% li natriy xlorid yeritmasi (fiziologik yeritma) solingan probirkaga 20 mkl qon quyiladi.
- 2.** Solishdan oldin pipetka uchi filtrlovchi qog'oz yoki doka bilan artiladi va qon probirka tubiga puflanadi.
- 3.** Pipetkani suyuqlik yuqori qatlamida yuviladi, probirka ichidagi aralastiriladi.
- 4.** Kamerani to'ldirishdan avval uni va yopqich oynani suv bilan yuviladi va quruq qilib artiladi.
- 5.** So'ng silliqlangan oynani kameraga shunday ishqalab yopishtirish kerakki, kamalak rangli halqa paydo bo'lishi lozim.
- 6.** Kamerani to'ldirish. Probirkalarga olingan qonni kameraga to'ldirishdan oldin bir necha marta pobirkani vertikal holatda ushlab chayqatish kerak.
- 7.** So'ngra shisha tayoqcha uchi bilan probirkadan qon tomchisi olinadi va kamera shunday to'ldiriladiki, to'r tutilgan yuza suyuqlik bilan yegatlarga oqizib yubormasdan va havo pufakchalarisiz qoplanishi kerak.
- 8.** Kamera to'ldirilgandan keyin 1 daqiqaga shaklli yelementlar cho'kishi uchun tinch qoldiriladi.
- 9.** Keyin kamera qat'iy gorizontal joylashgan mikroskop stolchasiga qo'yiladi va mikroskopning kichik yiriklashtirshida shaklli yelementlarni sanashga o'tiladi.
- 10.** Sanash qorong'ilashtirilgan ko'rish maydonida o'tkaziladi. (qiya yopilgan diafragma yoki biroz tushirilgan kondensor ostida).
- 11.** Yeritrotsitlarni sanash diagonal bo'ylab joylashgan 5 ta katta kataklarda o'tkaziladi.
- 12.** Kichik katak ichidagi va uning yuqori hamda chap chiziqlarida yotgan yoki ularga u yoki bu tomondan tegib turgan barcha yeritrotsitlar sanalishi lozim.

13. O'ng va pastki chiziqalarda joylashgan yoki ularga ikki tomondan tegib turgan yeritrotsitlar sanalmaydi, chunki ular keyingi katakda sanaladi. sanalgan yeritrotsitlar soniga to'rtta nol qo'shish, ya'ni 10000 ga ko'paytirish mumkin.

Meyoriy ko'rsatkichlar

Yerkaklarda : 4,5-6,5 x 10¹²/l

Ayollarda : 4,4-6,0 x 10¹²/l

Siydik qopini kateterlash texnikasi

Maqsad: Siydik tutilishida yordam berish

Ko'rsatma: Buyrak yallig'lanish kasalliklari

Kerakli jihozlar: Sudno, ko'za, kleyonka, taglik, kornsang, isitgich, suv. suyuq sovun, bir martalik qog'oz salfetka, 0,5% gipoxlorid natriy yeritmasi, instillagel, doka salfetka, steril qo'lqoplar , bir martalik steril kateter.

Bajarilish qadamlari:

1. Bemorga muolaja maqsadi tushuntiriladi va roziligi olinadi.
2. Qo'llar suyuq sovunda yuviladi, bir martalik qog'oz salfetkada quritiladi, toza qo'lqop kiyiladi.
3. Bemorni chalqanchasiga yotqizib, ostiga sudno qo'yiladi va chap qo'lda ko'zachadan suv quyib turib, o'ng qo'lda kornsangda olingan paxta sharcha yordamida osti yuqoridan pastga qarab toza bo'lguncha yuviladi va quritiladi.
4. Shpritsga tortilgan instillagel uretraga 3- 5ml miqdorida kiritiladi.(bu gel og'riqsizlantiruvchi, mikroblarga qarshi va yallig'lanishga qarshi ta'sir ko'rsatadi)
5. Steril qo'lqopni kiyib, chap qo'l bilan jinsiy lablar keriladi, o'ng qo'lda pinsetda olingan 1 martalik steril rezina kateter asta – sekin uretraga: ayollarda 4-5sm, yerkaklarda yesa 10 – 15 smgacha kiritiladi.
6. Kateterning tashqi uchi sudno ichiga yo'naltiriladi, kateterning tashqi uchida siydik paydo bo'lishi uni siydik qopida yekanligidan dalolat beradi.
7. Siydik qopi bo'shagach, kateter sekinlik bilan chiqarib olinadi.
8. Ishlatilgan barcha jihozlar zararsizlantiriladi.
9. Qo'llar yuviladi va quritiladi.

Siydikdagi oqsilni aniqlash uchun jixozlarni tayyorlang.

Maqsad: Siydikda oqsil bor yo'qligini aniqlash.

Ko'rsatma: Oshqozon ichak va yurak kasalliklarida.

Kerakli jixozlar: 20% sulfosalitsil, probirka, siydik.

Bajarilish qadamlari:

1. 2 ta bir xil diametrli o'lchov probirkasiga 2-3- ml. filtrlangan siydik solinadi.
2. Shulardan birinchisiga 3-4 tomchi 20 foizli sulfasalitsil kislota tomiziladi.
3. 2-probirkadagi siydik yesa solishtirish maqsadida kontrol sifatida qoladi.

4. Agar 1-probirkadagi siydik loyqalansa, demak, siydikda oqsil bor.
5. Ba'zan loyqalanish albumozlar hisobiga bo'lgan deb gumon qilinsa, tajriba probirkasi bir oz qizdiriladi.
6. Agar loyqalanish yo'qolsa, bu albumozlardan, agar loyqalanish kuchaysa, bu zardob oqsil hisobiga deb hisoblanadi va uning miqdori aniqlanadi.

Eklampsiyada shoshilinch yordam

Maqsad: Eklampsiyada yordam ko'rsatish

Ko'rsatma: Homiladorlikda.

Kerakli jixozlar: Fonendoskop, tanometer, dori- darmonlar.

Bajarilish qadamlari:

1. Xodimlarni yordamga chaqiring
2. Zudlik Bilan nafas olishi va hushini baholang. Jarohatlanishdan saqlang, ammo kuch bilan ushlamang.
3. Nafas yo'llari o'tkazuvchanligini tekshiring, AKB va pulsini o'lchang.
4. Ayolni chap yonboshiga yotqizing va katta kalibrli igna Bilan v/ichiga infuziyani boshlang.
5. 1 daqiqada 4l tezlikda kislorod bering, ayolni nazoratsiz qoldirmang.
6. V/ichiga va m/orasiga magneziy sulfat yuborishni boshlang. Yuklama dozasi: v/ichiga 5 daqiqa davomida 15 ml 25% li magneziy sulfat yoritmasini yuboring.
7. So'ng 25%li magneziy sulfat yoritmasini har bir dumbasiga 20ml dan novokain yostiqchasiga yuboring.
8. Agar talvasa takrorlansa, 15 daqiqadan so'ng 5 ml 25%li magneziy sulfat yoritmasini 5 daqiqa davomida v/ichiga yuboring.
9. Ushlab turuvchi dozasi: har 4 soatda 10 ml 25%li magneziy sulfat yoritmasini m/orasiga yuboring.
10. Magneziy sulfat yoritmasi yuborishni tug'ruqdan so'ng yoki oxirgi talvasadan so'ng 24 soat davomida davom ettiring.

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG‘LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI
TIBBIY TA‘LIMNI RIVOJLANTIRISH MARKAZI RESPUBLIKA O‘RTA
TIBBIYOT VA FARMATSEVTIKA XODIMLARINI MALAKASINI OSHIRISH VA
ULARNI IXTISOSLASHTIRISH MARKAZI ANDIJON FILIALI “NEFROLOGIYA
VA GEMODIALIZDA HAMSHIRALIK ISHI” YO‘NALISHIDAGI ISHCHI O‘QUV
DASTURIGA**

TAQRIZ

Ushbu ishchi o‘quv dasturi Mamlakatimizda aholiga tibbiy xizmat ko‘rsatish darajasini oshirish, sog‘liqni saqlash tizimida Nefrologik va buyrak kasalliklari mavjud bemorlarga hamshiralik parvarishini o‘tkazish xalqaro andozalarga mos tarzda tashkil etish borasida zamonaviy tizimni yaxshilash maqsadida yaratilgan.

Mazkur ishchi o‘quv dastur “Nefrologiya va gemodializda hamshiralik ishi” fanini o‘qitish uchun ishlab chiqilgan bo‘lib, u o‘rta va oliy tibbiyot ta‘lim muassasalarida tahsil olayotgan talabalar uchun mo‘ljallangan. Dastur zamonaviy tibbiyot talablari asosida tuzilgan bo‘lib, unda buyrak kasalliklari, ularning diagnostikasi, davolash usullari hamda gemodializ jarayonida hamshiralarning o‘rni va vazifalari keng yoritilgan.

Ishchi o‘quv dasturining tuzilishi mantiqiy va izchil bo‘lib, unda fan maqsadi, vazifalari, o‘quv natijalari aniq belgilangan. Dasturda nazariy bilimlar bilan bir qatorda amaliy ko‘nikmalarni shakllantirishga alohida e‘tibor qaratilgan. Ayniqsa, gemodializ jarayonida bemorlarni parvarish qilish, aseptika va antiseptika qoidalariga rioya etish, apparatlar bilan ishlash, shoshilinch holatlarda tezkor yordam ko‘rsatish kabi muhim jihatlar batafsil yoritilgan.

Dastur mazmunida buyrak yetishmovchiligi, nefritlar, nefroz sindromi, siydik yo‘llari kasalliklari kabi dolzarb mavzular qamrab olingan. Har bir mavzu bo‘yicha o‘quv maqsadlari, asosiy tushunchalar va amaliy mashg‘ulotlar ko‘rsatilgan bo‘lib, bu talabalarning bilim va ko‘nikmalarini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Shuningdek, ishchi o‘quv dasturida zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo‘llash, interfaol usullar asosida darslarni tashkil etish, nazorat va baholash mezonlari ham o‘z aksini topgan. Bu esa ta‘lim sifatini oshirishga yordam beradi.

Shuningdek ushbu dasturda bugungi kunda nixoyatda aktual bo‘lgan “Sterilizatsiyada zamonaviy usullar va texnika xavfsizligi”, “Infekcion nazorat”, “Sog‘lom turmush asoslari, to‘g‘ri ovqatlanish mezonlari va jismoniy faollik” fanlaridan iborat bo‘lib, o‘rta tibbiyot xodimlariga sohadagi zamonaviy, ilmiy va amaliy yutuqlarga tayangan holda, tibbiyotda yuqumli kasalliklarni oldini olish, o‘ta xavfli infeksiyalarda tibbiyot xamshirasi bilishi zarur bo‘lgan bilim va ko‘nikmalar kiritilganligi ushbu ishchi o‘quv dasturining qiymatini yanada oshiradi. “Nefrologiya va gemodializda hamshiralik ishi” bo‘yicha tegishli xar bir mavzu o‘quv materiallari tariflab berilgan va ushbu mavzuni to‘liq o‘zlashtirish hamda talabga muvofiq yetarli nazariy va amaliy bilimlarni egallash uchun zarur bo‘lgan xajmda taqdim etilgan.

Xulosa qilib aytganda, “Nefrologiya va gemodializda hamshiralik ishi” fanidan ishlab chiqilgan mazkur ishchi o‘quv dastur dolzarb, puxta ishlab chiqilgan hamda amaliy ahamiyatga ega bo‘lib, uni o‘quv jarayoniga joriy etish maqsadga muvofiqdir.

VBKTTM
Nefrologiya bo‘limi boshlig‘i



S.A.Sultanova

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG'LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI
TIBBIY TA'LIMNI RIVOJLANTIRISH MARKAZI RESPUBLIKA O'RTA
TIBBIYOT VA FARMATSEVTIKA XODIMLARINI MALAKASINI OSHIRISH VA
ULARNI IXTISOSLASHTIRISH MARKAZI ANDIJON FILIALI "NEFROLOGIYA
VA GEMODIALIZDA HAMSHIRALIK ISHI" YO'NALISHIDAGI TEST
SAVOLLARIGA**

TAQRIZ

Respublika o'рта tibbiyot va farmatsevtika xodimlari malakasini oshirish va ularni ixtisoslashtirish markazi Andijon filiali **"Nefrologiya va gemodializda hamshiralik ishi"** yo'nalishiga, ixtisoslashtirish guruhlar uchun tuzilgan test savollari ko'rib chiqildi. Testlar tasdiqlangan o'quv dasturi mavzulariga mos ravishda tuzilgan. Testlar jami 500 ta bo'lib, har bir testga 4 tadan javob varianti mavjud. Testlar SSVning 15.06.2020 yildagi № 160 sonli buyrug'idagi mezonlarga mos ravishda tuzilgan, tushunarli va oson tilda bayon etilgan va soni tinglovchilar bilimini nazorati uchun yetarli. Tinglovchilarning mazkur fan bo'yicha bilim ko'rsatkichini oshirishga asos yaratadi.

Taqrizga taqdim etilgan testlarni tinglovchilar bilimini joriy, oraliq, va yakuniy nazoratini baholash maqsadida qo'llash mumkin.

Ko'rib chiqilgan testlarda quyidagi kamchiliklar aniqlandi: o'zbek tili lotin grafikasida tuzilgan va testlarda ayrim orfografik xatolar mavjud.

VBKTTM
Nefrologiya bo'limi boshlig'i




S.A.Sultanova

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG‘LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI
TIBBIY TA‘LIMNI RIVOJLANTIRISH MARKAZI RESPUBLIKA O‘RTA
TIBBIYOT VA FARMATSEVIKA XODIMLARINI MALAKASINI OSHIRISH VA
ULARNI IXTISOSLASHTIRISH MARKAZI ANDIJON FILIALI “NEFROLOGIYA
VA GEMODIALIZDA HAMSHIRALIK ISHI” YO‘NALISHIDAGI ISHCHI O‘QUV
DASTURIGA**

TAQRIZ

Ushbu ishchi o‘quv dasturi Mamlakatimizda aholiga tibbiy xizmat ko‘rsatish darajasini oshirish, sog‘liqni saqlash tizimida Nefrologik va buyrak kasalliklari mavjud bemorlarga hamshiralik parvarishini o‘tkazish xalqaro andozalarga mos tarzda tashkil etish borasida zamonaviy tizimni yaxshilash maqsadida yaratilgan.

Mazkur ishchi o‘quv dastur “Nefrologiya va gemodializda hamshiralik ishi” fanini o‘qitish uchun ishlab chiqilgan bo‘lib, u o‘rta va oliy tibbiyot ta‘lim muassasalarida tahsil olayotgan talabalar uchun mo‘ljallangan. Dastur zamonaviy tibbiyot talablari asosida tuzilgan bo‘lib, unda buyrak kasalliklari, ularning diagnostikasi, davolash usullari hamda gemodializ jarayonida hamshiralarning o‘rni va vazifalari keng yoritilgan.

Ishchi o‘quv dasturining tuzilishi mantiqiy va izchil bo‘lib, unda fan maqsadi, vazifalari, o‘quv natijalari aniq belgilangan. Dasturda nazariy bilimlar bilan bir qatorda amaliy ko‘nikmalarni shakllantirishga alohida e‘tibor qaratilgan. Ayniqsa, gemodializ jarayonida bemorlarni parvarish qilish, aseptika va antiseptika qoidalariga rioya etish, apparatlar bilan ishlash, shoshilinch holatlarda tezkor yordam ko‘rsatish kabi muhim jihatlar batafsil yoritilgan.


Dastur mazmunida buyrak yetishmovchiligi, nefritlar, nefroz sindromi, siydik yo‘llari kasalliklari kabi dolzarb mavzular qamrab olingan. Har bir mavzu bo‘yicha o‘quv maqsadlari, asosiy tushunchalar va amaliy mashg‘ulotlar ko‘rsatilgan bo‘lib, bu talabalarning bilim va ko‘nikmalarini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Shuningdek, ishchi o‘quv dasturida zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo‘llash, interfaol usullar asosida darslarni tashkil etish, nazorat va baholash mezonlari ham o‘z aksini topgan. Bu esa ta‘lim sifatini oshirishga yordam beradi.

Shuningdek ushbu dasturda bugungi kunda nixoyatda aktual bo‘lgan “Sterilizatsiyada zamonaviy usullar va texnika xavfsizligi”, “Infeksion nazorat”, “Sog‘lom turmush asoslari, to‘g‘ri ovqatlanish mezonlari va jismoniy faollik” fanlaridan iborat bo‘lib, o‘rta tibbiyot xodimlariga sohadagi zamonaviy, ilmiy va amaliy yutuqlarga tayangan holda, tibbiyotda yuqumli kasalliklarni oldini olish, o‘ta xavfli infeksiyalarda tibbiyot xamshirasi bilishi zarur bo‘lgan bilim va ko‘nikmalar kiritilganligi ushbu ishchi o‘quv dasturining qiymatini yanada oshiradi. “Nefrologiya va gemodializda hamshiralik ishi” bo‘yicha tegishli xar bir mavzu o‘quv materiallari tariflab berilgan va ushbu mavzuni to‘liq o‘zlashtirish hamda talabga muvofiq yetarli nazariy va amaliy bilimlarni egallash uchun zarur bo‘lgan xajmda taqdim etilgan.

Xulosa qilib aytganda, “Nefrologiya va gemodializda hamshiralik ishi” fanidan ishlab chiqilgan mazkur ishchi o‘quv dastur dolzarb, puxta ishlab chiqilgan hamda amaliy ahamiyatga ega bo‘lib, uni o‘quv jarayoniga joriy etish maqsadga muvofiqdir.

VBKTTM
Bosh shifokori



N.T.Normatov